


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

OTAMURATOVA MUYIBA O‘KTAMOVNA


O‘zbek adabiyoti kafedrasining

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n. N. Jumaniyozova



Urganch – 2019

MUNDARIJA

Kirish. Ishning maqsad va vazifalari.....	3
I Bob. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida uslubiy individuallik.....	8
1.1. M. Abdulhakim ijodida uslubiy o‘ziga xoslik	8
1.2. M. Abdulhakim va I. Mirzo she’riyatida muhabbat tasviri.....	17
II Bob. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida mavzular rang-barangligi	32
2.1. M.Abdulhakim she’riyatida mavzu va mahorat masalasi	32
2.2. I. Mirzo ijodida mavzu va poetik ifoda mushtarakligi.....	40
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik davri she'riyati yangi ohanglar va ma'no teranligi bilan boyidi. Uning ifoda tarzi tub milliy, badiiy yutuqlardan rag'batlanish bilan birga jahon estetik tafakkurining ilg'or an'alarini ijodiy o'zlashtirish evaziga ham takomillashib bormoqda. Falsafiy-ijtimoiy mazmun salmoqdorligi, ifodaning ta'sirchanligi, uslub shakllarining rang-barangligi, fikrning ohorli talqini kabi xususiyatlar she'riyatga o'ziga xos alohidalik bag'ishlamoqda. Poetik obraz qalb olamidagi zohiriy va botiniy jarayonlarni asosiy tasvir obyektiga aylantirish, uning fikr va hissiyot tarzini, axloqiy qiyofasini kashf etishda an'anaviylik bilan yangicha yondashuv tamoyillari dadil omuxtalashtirilmoqda. Ma'lumki, inson moddiyati va ma'naviyatining serqirra qatlamlarini tadqiq qilish, ruhiyatidagi ko'z ilg'amas kechinmalar talqini orqali uni murakkab oliy xilqat sifatida yaxlit tasvirlash badiiy adabiyotning asosiy vazifasidir. Bu o'rinda ijodkor mahorati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday badiiy ijod namunasining yaralishida ijodkorning yuksak iste'dodi va estetik didi o'zgacha o'rin tutadi. Badiiy adabiyotning ravnaq topishida ijodkor mahorati masalasida fikr yuritar ekanmiz, bu o'rinda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning badiiy ijod ahliga qarata aytgan quyidagi jumllarini keltirishimiz o'rinli bo'ladi : "Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflı ekanini barchamiz yaxshi bilamiz"¹. Ushbu jumllarda Prezidentimiz tomonidan badiiy ijod sohasida qalam tebratib kelayotgan ijodkorlarning mashaqqatli mehnatlari yuksak e'tirof etiladi.

Badiiy ijod sohasi taraqqiy topib borar ekan, bu jarayonda shakliy-uslubiy izlanishlar sohasida ijodiy tajribalar qilish, yangi kutilmagan ifoda yo'llarini qo'llash zaruriyati tug'iladi.

¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017-yil. 4-avgust.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi g'oyaviy-badiiy izlanishlarda yangicha ohanglar va shakliy ko'rinishlar, falsafiy qarashlar tobora ko'proq qaror topmoqda. Bunda, shubhasiz, milliy adabiy an'analar izidan borish bilan bir qatorda, jahon adabiyoti tajribalaridan bahramand bo'lish, ulardan samarali foydalanish holatlari ham mavjud. Bu xususiyatlar mavzu va g'oyalar mushtarakligidan tashqari, lirik qahramon talqini, tasvir shakli, ifoda vositalari, badiiyati va janriy o'ziga xoslik kabi ko'rinishlarda ham aks etmoqda. Yuqorida bayon etilgan fikrlar bugungi o'zbek she'riyatining yetakchi xususiyatlari bo'lib, badiiy-estetik qarashlarga ham katta ta'sir ko'rsatayotir. Bu ta'sir va yangilanishlarni hozirgi adabiy jarayon va uning vakillari bo'lgan Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodi asosida o'rganish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tabiiyki, bunda insonning voqelikka munosabati, davr farzandi sifatidagi qiyofasi, his-tuyg'ularining tadqiqi poetik tafakkurning markaziga qo'yilmoqda. Milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi she'riyatimizning asosiy mohiyatini belgilovchi omil bo'lib qoldi. Bu esa o'z navbatida, voqelik va inson talqinida yangicha g'oyaviy-badiiy izlanishlar va individual yondashuvlarni taqozo etmoqda. O'tgan asrning 90-yillaridan kuchaya boshlagan bu jarayonda milliy she'riyatimizdagi jiddiy siljish va sifat o'zgarishlari uchun haqqoniylik darajasi yangi bosqichga ko'tarildi, bugungi inson murakkab xilqat sifatida o'zining dardlari bilan ancha chuqur kashf etila boshlandi.

Shuningdek, XX asrning 90-yillaridan keng tarqala boshlagan yangicha tafakkur, o'zlikni anglash, milliy faxr tuyg'usining kuchayishi kabi omillar badiiy ijodkorlik, jumladan, she'riyatda ham sifat o'zgarishlarini vujudga keltira boshladi. She'riyat mavzu, janr jihatdan ancha kengayib, boyidi, fikriy va hissiy teranlik oshib, insonni qamrovli anglash, uning qalb olamini taftish etish, umuman, yangicha badiiy kashf qilish kuchaydi. Ijodkorlarning izlanishlarida esa milliy an'analardan oziqlangan holda hozirgi Sharq va G'arb adabiyotidagi avangard tajribalarni ijodiy o'zlashtirishga keng yo'l ochildi. Bu esa hayotni bevosita, bo'yamasdan tasvirlash, shaxs taqdiridagi murakkabliklarni, uning ichki dunyosi, o'y-fikrlarini xolis, kengroq tadqiq etishda uslub va yondashuvlarni

takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi she'riyatimiz ana shu yo'ldan dadil borar ekan, uning mohiyatini tashkil etuvchi insonparvarlik, ezgulik, erksevarlik kabi umumbashariy g'oyalar rang-barang she'riy shakllar va uslublarda kuylanmoqda.

Istiqlol sharofati tufayli yuzaga kelgan ijod erkinligi, mustaqil fikrlashga keng yo'l ochgan asosiy omil bo'lmoqda. Shuningdek, ijodiy o'ziga xoslik ijodkor "men"i, o'zini kashf etish orqali poetik fikrning ijtimoiy-estetik mohiyatini chuqurlashtirish, shaxsiy iqtidori, dunyoqarashi, obrazli ifoda va tasvir uslublaridan samarali foydalanish kabi omillarda ham namoyon bo'layotir. Bu jarayonda har bir shoirning voqelikka estetik munosabatining darajasi va miqyosi uning shaxsiyati, "men"idagi badiiy funktsiya, qalamga olingan mavzular, obrazlar, g'oya va qarashlar tizimi yaxlit holda ijodkorning uslubiy qiyofasini shakllantiradi. Zero, shoir "men"i adabiyotdagi boshqa individual shakllardan farqli bo'lgandagina muhim ahamiyat kasb etadi, ana shundagina u insonning ruhiy dunyosini, xalqning badiiy madaniyatini boyitadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Istiqlol davri o'zbek she'riyatini, avvalo, mazmun-mohiyatiga ko'ra, so'ngra ifoda maqsadiga ko'ra farqlash mumkin. O'zbek adabiyotida, jumladan, lirikada uslubiy yo'nalishlar adabiyotshunosligimizning muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. She'riyatda tezkorlik bilan kechayotgan bu jarayon, ayniqsa, bugungi kunda katta qiziqish uyg'otmoqda. Shuningdek, tadqiqotda realistik tasvirda haqqoniylik va konkretlik, romantik ifodada esa, subyektivlik va jo'shqinlik tamoyillari ustuvorligi asoslab berilgan

Mustaqillik davri she'riyatidagi uslubiy yo'nalishlardan bahs etuvchi tadqiqotlarda mavjud fikrlar yanada boyitildi. Bu jihatdan, ayniqsa, N. Rahimjonov, R. Sharipov, I. To'lov, D. Mirzaeva, D. Rajabov, M. Yo'ldosheva, A. Hayitov, I. Qurbonboev va N. Jumaniyozova kabi adabiyotshunoslarning ishlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Bu adabiyotshunoslar o'zbek adabiyotidagi yirik shoirlar ijodi va uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritganlar. Shoir Matnazar

Abdulhakimning ijodini o'rganishda ham keyingi yillarda ancha yutuqlarga erishildi. Xususan, filologiya fanlari nomzodi N. Jumaniyozovaning "Istiqlol davri o'zbek lirikasida uslubiy izlanishlar" nomli nomzodlik dissertatsiyasida M. Abdulhakim asarlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ijodkorning she'riyati bo'yicha doktorlik ishi, oliy ta'limda bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari amalga oshirilmoqda. Shoir ijodiy ishlari bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalar chop etilgan.

Bu yo'nalishlarda H. Abdullayev, Sh. Matkarimov, Q. Salayev, Erpo'lat Baxt, N. Jumaniyozova, D. Bekchanova, B. Rahimova va H. G'oyipovalarning maqolalari, xotira kitoblari e'lon qilingan. Muhimi shundaki, bu ilmiy va ommabop asarlarda Matnazar Abdulhakimning shaxs va ijodkor sifatidagi fazilatlari, o'ziga xos poetik idroki, zalvorli badiiy tafakkurining yangi qirralari yoritilgan. Taniqli shoir Iqbol Mirzo ijodi ham o'zining betakror qirralari bilan adabiyotshunoslar va she'riyat ixlosmandlarining e'tiborini jalb qildi. Iqbol Mirzo ijodi bo'yicha D. Quvvatova, S. Mo'minova, Z. Jamolova, Sh. Jumaboyeva kabi bir qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Istiqlol davri o'zbek lirikasidagi o'ziga xos o'ringa ega shoir Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodining badiiy-uslubiy xususiyatlari uyg'unlashtirilgan holda ilk marta tadqiq etilishi tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligidir. Bunda kishilar ongidagi o'zgarishlar, o'zlikni anglash va badiiy ijoddagi izlanishlarning ehtiyoji ekanligiga alohida urg'u berildi va shaxsning fikrlash tarzi, dunyoqarashi, ongi-shuuridagi evrilishlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi yana quyidagilarda ko'rinadi:

- badiiy-uslubiy xususiyatlar istiqol davri o'zbek lirikasi taraqqiyot tamoyillarining muhim xususiyatlaridan biri ekanligi asoslandi;
- ijod namunalaridagi badiiylik faqat shakliy izlanishlarnigina emas, balki ijodkor dunyoqarashi, voqelikni anglash va badiiy kashf salohiyati kabi unsurlarni ham qamrab olishi ta'kidlandi;

– adabiy jarayon va ijodkor individualligi munosabatida mushtarak va betakror uslublarning o‘rni o‘rganildi;

– Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodida uslub va badiiyat uyg‘unligi masalalari, ramziylik, tasviriy vositalar va boshqa ifoda unsurlaridan foydalanishdagi xolisliklar tahlil etildi.

Tadqiqotning maqsadi. Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida badiiy tafakkurning yangilanishi va uslubiy xususiyatlar, mavzular ko‘lami, ijodkor shaxsiyati masalasini yangi adabiy tafakkur tamoyillari asosida tadqiq etish ishning maqsadidir.

Tadqiqotning vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot vazifalari quyidagicha belgilandi:

– Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida badiiy tafakkurning yangilanish xususiyatlarini o‘rganish;

– Matnazar Abdulhakim she‘riyatida mahorat, adabiy an‘analar va ijtimoiy hayot tarzining o‘rnini belgilash;

– Iqbol Mirzo she‘riyatining badiiy mohiyati, ijodkor dunyoqarashi va salohiyati bilan bog‘liqligini dalillash;

– Matnazar Abdulhakim she‘riyatida majoziy tasvir usullarining aks ettirilishida ijodkor uslubidagi yetakchi xususiyatlarni tahlil etish;

– Iqbol Mirzo ijodida mazmundorlik va lirik xarakter yaratishda falsafiy-psixologik tasvir usullarining rolini oydinlashtirish;

– uslubiy yo‘nalishlarning lirik she‘rlar kompozitsion qurilishi, janriy shakllarining qo‘llanishidagi ifodasini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti va predmeti.

Mazkur ishning obyekti va predmeti sifatida istiqolol davri o‘zbek lirikasining ko‘zga ko‘ringan vakillari Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijod namunalari tanlab olindi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ish kirish, ikki bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, hajmi 57 betdan iborat.

I BOB. ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA USLUBIY INDIVIDUALLIK

1.1. Matnazar Abdulhakim ijodida uslubiy o‘ziga xoslik

Adabiyot insonning ko‘ngil ko‘zini ravshanlashtiruvchi, uning yurakdagi tuyg‘ularining in’ikosidir. U o‘zi yaralayotgan paytda inson qalbidagi dard-u quvonchi bilan dunyoga keladi. Ustoz Abdulla Qahhor ta’kidlaganidek: “Adabiyot – ko‘ngil ishi samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi”¹. Hozirgi o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Matnazar Abdulhakimdir. U serqirra ijod sohibi – iste’dodli shoir, mohir tarjimon va izlanuvchan tadqiqotchi sifatida keng jamoatchilikka tanildi va el e’zoziga musharraf bo‘ldi. Shoir badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkordir. Uning she’rlarida yuksak estetik didi, voqelik va kechinmalarni badiiy kashf etish salohiyati yorqin ko‘rinsa, ilmiy-ommabop maqolalarida adabiy merosni, xususan, o‘tmish badiiy yozma qadriyatlarini chuqur anglash va idrok etish iqtidori namoyondir². Shoirning “Iymon tuhfası”, “Ikkinchi muallim saboqlari”, “Mangulik jamoli” kabi asarlari bunga dalildir. Ijodkor badiiy tarjima sohasida ham unumli ishlar olib borgan. U Najmiddin Kubro, Majididdin Bag‘dodiy, Pahlavon Mahmud, Abulvafo Xoja Xorazmiy, Bedil, Ogahiy singari ustoz so‘z san’atkorlari asarlarini fors tilidan o‘zbek tiliga o‘giran. Bu tarjimalar asosida “Kim agar ozoddur”, “Tabarruk tashrif”, “Jamoling menga basdur” kitoblari maydonga keldi.

Matnazar Abdulhakimning ijodi yo‘nalishlarida she’riyat yetakchilik qiladi. Shoirning ilk she’rlar to‘plami 1982-yilda “Tiniq tonglar” nomi bilan chop etildi. To‘plamdagi she’rlar uning o‘ziga xos shoirona nigohi, voqelikni badiiy kashf etish salohiyati borligini ko‘rsatdi va katta ijod yo‘liga boshladi. Keyingi davrlarda

¹ A. Qahhor. yoshlar bilan suhbat. – Toshkent, 1968. – B.125.

² Jumaniyozova N. M.Abdulhakim she’rlarida majoziy tasvir usullari. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2008. №6 – B. 93.

Toshkent va Urganch shaharlarida nashr etilgan “Fasllar qo‘shig‘i”, “Mavj”, “Qor qo‘shig‘i” to‘plamlari uni keng kitobxonlar ommasiga tanitdi. Uning ijod namunalari borgan sari teranlashdi, uslubiy turfalik kashf etdi, falsafiy ruh bilan ziynatlandi.

Istiqlol davri Matnazar Abdulhakim ijodida yangi bosqichning – yetuklik sari borishning boshlanishi bo‘ldi. Bu davrda uning “Yonimdagi daryolar”, “Qorachig‘dagi dunyo”, “Oydinlik”, “Bir qujoq gul”, “Yolg‘iz yaproq” she‘riy to‘plamlari kitobxonlar qo‘liga tegdi. Bu to‘plamlarning har birini shoirning nafosat chamanidagi o‘ziga xos she‘riy guldastasi deyish mumkin. Adabiy tafakkur birmuncha yangilangan, she‘riyat siyosat quroli vazifasidan holi bo‘lib, haq so‘zni aytish, inson va hayotni bo‘y-basti bilan badiiy tadqiq etish boshlangan yillarda ijod maydoniga kirib kelgan shoir bu jarayonda davom etayotgan yangicha izlanish va adabiy-estetik qarashlar takomiliga munosib hissa qo‘shdi. Uning “Javzo tashrifi”, “Ko‘prik” kitoblari hozirgi o‘zbek she‘riyatini yanada boyitdi.

Ustoz Abdulla Qahhor “Poeziya – yuksak san‘at” maqolasida yozganidek, “She‘rning mo‘jizalik sirlaridan voqif bo‘lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muayassar bo‘lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak”¹. O‘sha “kerak nimadir”, nazarimizda, ilohiy ne‘mat – badiiy kashf etish salohiyatidir. Bu salohiyat sohibi Matnazar Abdulhakim insonlarga she‘riyatning ana shu sirlari qatlaridagi farahbaxsh ezgulik va go‘zallikni ulashayotgan shoirlardandir.

Poetik obraz – so‘z obrazi. So‘zning tub va ko‘chma ma‘no qatlamlari ijodkor badiiy tafakkurida qayta idrok etilib, muayyan ijtimoiy-estetik maqsadga qaratilganda so‘z obrazga aylanadi. Poetik obrazning vazifasi adabiyotning, jumladan, she‘riyatning inson va voqelikni badiiy o‘zlashtirish vositasi ekanligidan kelib chiqadi. Zero, kechinma va fikr uyg‘unligida insonni ulug‘lash, qalbni ezgulik, poklik va go‘zallik tuyg‘usi bilan nurlantirish, ruhiy-ma‘naviy

¹ A. Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent, 1968. – B. 140.

komillikni targʻib etish – poetik obrazning azaliy badiiy-estetik vazifasidir.

Ijodiy individuallik, uslub va betakrorlik uygʻunligi – mahorat belgilaridan. Bu xususiyatlarning ifodasi bugungi oʻzbek sheʼriyatining namoyandalari ijodida, asosan, quyidagi yoʻnalishlarda davom etmoqda:

1) anʼanaviy mavzu, motiv va obrazlarga teran yondashib, ularning yangi qirralarini topish va mazmun-mohiyatini chuqurlashtirish;

2) mavjud janrlarni takomillashtirib, boyitib, yangi janrlarni qoʻllash va milliy xususiyatlar bilan sintezlash;

3) sheʼriy asarlar badiiyatida xalqona, anʼanaviy va modern uslubiy yoʻnalishlar taqozosiga koʻra tasviriy vositalar, xususan, soʻzning maʼno jilolaridan va majoziy obrazlilikdan keng foydalanish ¹.

Inson va voqelikni badiiy kashf etish ijodkor fikrlashi – mavzu tanlashdan boshlanadi. Mavjud hayot tarzi, ijodkor yashayotgan davr xususiyatlari mavzularda muayyan darajada aks etadi. Ammo ularga munosabat har bir ijodkorda har xildir. Bu hol mushtarak mavzularga bagʻishlangan asarlarga ham daxldor boʻlib, shoirlarning ijodiy individualligi bilan izohlanadi. Chunonchi, Vatan, Xalq, Muhabbat, Adolat, Baxt, Axloq kabi azaliy mavzularda yaratilayotgan asarlarda ham buni yorqin kuzatish mumkin. Anʼanaviy mavzuning yangi talqinlari ijodiy individuallikning muhim koʻrsatkichlaridan biridir.

Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini oʻtin yorishga sarf qilmaslik kerak ². Shu maʼnoda adabiyotning yetakchi vazifalaridan biri oʻquvchiga estetik zavq bera olishdir. Estetika – did va nafosat ekanini hisobga oladigan boʻlsak, sheʼriyatining va ijodkorning oldiga qoʻyiladigan birinchi talab ham asarning kitobxon koʻngliga kirib borishi, uning ongi va shuurida akslanishi va maʼlum maʼnoda hayotda shu oʻy-fikrlar asosida xulosa chiqara olishi lozim. Agar yaratilgan asar taʼsirchan boʻlmasa, uning yashovchan boʻlishi ham mumkin emas. Abdulla Qahhor taʼbiricha: “Hayot magnit – oʻziga tortadi, yozuvchi shu magnitni

¹ Jumanioyova N. M. Abdulhakim sheʼrlarida majoziy tasvir usullari. // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2008. №6 – B. 93.

² A.Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent, 1968. – B. 140.

o‘ziga torta olsagina kitobxonni o‘ziga torta oladi”¹. Tom ma’noda bu ijodkorning dostonlari ham o‘quvchini xuddi magnit kabi o‘ziga torta oldi. Shoir Matnazar Abdulhakim she’riyatida uslub va badiiyat uyg‘unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir o‘z ijod namunalarida yetuk poetik lavhalar yaratib, inson ma’naviy dunyosini yanada teranroq idrok qilishga, uning tubsiz qalb kengliklaridagi o‘ziga xos qirralarini kashf etishga intiladi². Ijodkorning “Javzo tashrifi” to‘plami ustida to‘xtalsak, bu to‘plamdan o‘rin olgan ijod namunalardagi mavzularning rang-barangligi, ko‘lami kengligi bilan birga ulardagi an’anaviy va yangi obrazlar, betakror tashbehlarining guvohi bo‘lamiz. Ayni damda, badiiy adabiyotning vazifasi ham insonni yetuk, komil shaxs sifatida tarbiyalashdir. Yaratilgan har bir asar esa o‘quvchiga estetik zavq bera olishi, falsafiy mazmun kasb eta olishi, uni ijodkor bilan hamdard qila olishi, asar qahramonlari bilan yashay olishga undamog‘i darkor. Shoir ijodida bu xususiyatlarning barchasini ko‘rishimiz mumkin. Matnazar Abdulhakim – o‘ziga xos badiiy tafakkurga, falsafiy fikrlashga moyil shoir. Uning 80-yillardan chop etila boshlangan dastlabki to‘plamlaridan tortib, 2008-yilda nashr qilingan “Javzo tashrifi” saylanmasiga kirgan asarlarining ko‘pchiligida bunday xususiyat yorqin aks etadi. Bunda, tabiiyki, to‘rtlik, g‘azal, turkum she’rlar va dostonlarning janr tarkibiga ko‘ra aforistik ma’no qirralari turli daraja va ohanglarda namoyon bo‘ladi. lekin ularning barchasida poetik tafakkurning asosiy talabi – obrazli va hissiy fikrning inson botiniy olamiga ta’siri saqlangan. Zero, she’riyatda har qanday hikmatli fikr shoir subyektining ehtirosi, shaxsiy kayfiyat – sa’jiyasi, muayyan ruhiy kechinmasi sifatida tug‘ilgan obraz yoxud mulohaza tufayligina badiiy topilmaga aylanadi.

Badiiy tafakkur inson faoliyatining bir qismi bo‘lib, u ijtimoiy-estetik mohiyat kasb etuvchi uzluksiz jarayon. Unda insonning tabiat, jamiyat, narsa va hodisalar, umuman, voqelik to‘g‘risidagi qarashlari obrazli va subyektiv tarzda aks etadi. Badiiy tafakkur tarixiy-ijodiy xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy-estetik tadrijini, muayyan adabiy jarayon xususiyatlarini aks ettiradi. Unda ijodkorning

¹ A.Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent, 1968. – B. 139.

² Jumanioyozova N. M.Abdulhakim she’rlarida majoziy tasvir usullari. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2008. №6- B. 93.

dunyoqarashi, ijtimoiy-badiiy fikr miqyosi, voqelikni estetik baholash tamoyillari mujassamlashadi. Har bir tarixiy davrda jamiyat rivoji tufayli yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy ehtiyojlar badiiy tafakkurda ham o'zgarishlarni taqozo etadi, adabiy intellektual qadriyatlarga yangicha qarashlar asosidagi munosabat shakllanadi. Bu jarayonda, tabiiyki, milliy badiiy tafakkur bag'ridagi mumtoz shakllarda an'ana, umuman, vorislik tarzi yanada boyitiladi, takomillashadi, zamonaviy mohiyat kasb etadi. Badiiy tafakkur, badiiy ong, poetik idrok va ifoda orqali voqe bo'lar ekan, uning markazida obrazlilik turadi.

Obrazlilik badiiy tafakkurning asosiy xususiyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, inson turmush tarzi, umuman, jamiyatda kechayotgan jarayonlar, estetik qarashlar bilan bog'liq kategoriyadir. Hislarga ta'sir etuvchi haqiqiy badiiy asar ijodkor dunyoqarashi, favqulodda salohiyati, teran fikr va tuyg'ular hosilasi bo'lishi bilan birga, voqelikni o'ziga xos anglash va badiiy kashf etish tarzi – uslubi bilan ham uzviy bog'liqdir. Uslub tarixiy tushuncha bo'lib, alohida ijodkorga, yo'nalish esa muayyan ijodkorlar guruhiga mansub asosiy ifoda yo'lidir. Har bir asar ma'lum bir uslub va yo'nalishda yaratilar ekan, u badiiy tafakkurning o'tgan yoxud zamonaviy davriy xususiyatlari bilan bog'liq holda voqe bo'ladi. Bu esa uslubiy yo'nalishlarda an'ana va yangicha qarashlarni vujudga keltiradi va badiiy ijoddagi davomiylikni ifodalaydi.

Ma'lumki, badiiy tafakkurning eng hozirjavob shakllaridan biri she'riyatdir. U insonning o'zini, hislarini jamiyat va borliq, umuman, voqelikni estetik anglash vositalaridan biri bo'lib, hamma davr va makonlarda ma'naviy komillikni so'z yordamida ulug'lovchi san'at bo'lib kelgan.

Istiqlol sharofati tufayli yuzaga kelgan ijod erkinligi mustaqil fikrlashga keng yo'l ochgan asosiy omil bo'lmoqda. Shuningdek, ijodiy o'ziga xoslik ijodkor "men"i, o'zini kashf etish orqali poetik fikrning ijtimoiy-estetik mohiyatini chuqurlashtirish, shaxsiy iqtidori, dunyoqarashi, obrazli ifoda va tasvir uslublaridan samarali foydalanish kabi omillarda ham namoyon bo'layotir. Bu jarayonda har bir shoirning voqelikka estetik munosabatining darajasi va miqyosi

uning shaxsiyati, “men”idagi badiiy funksiya, qalamga olingan mavzular, obrazlar, g‘oya va qarashlar tizimi yaxlit holda ijodkorning uslubiy qiyofasini shakllantiradi. Zero, shoir “men”i adabiyotdagi boshqa individual shakllardan farqli bo‘lgandagina muhim ahamiyat kasb etadi, ana shundagina u insonning ruhiy dunyosini, xalqning badiiy madaniyatini boyitadi ¹.

Hozirgi davr milliy lirikamiz rivojida yangi, yuqori bosqich ekanligi, undagi sifat ko‘rsatkichlarining zamini va zamonaviy omillari fanda tobora kengroq tahlil etilmoqda. Muhimi shundaki, bu jarayonda ijtimoiy-estetik faktorlar bilan bir qatorda shoir shaxsiyati, ijodiy qiyofasi, faolligi, voqelikni anglash iqtidori, ijod erkinligidan foydalanish darajasining o‘rniga ham e’tibor qaratilmoqda. Bu xususiyatlarning ifodasi she’riyat mavzusining kengayishi, g‘oyaviy-mazmuniy miqyosining oshishi, shakliy izlanishlarning rang-baranglashuvi, individual uslubning yorqinlashuvi, lirik qahramon “men”ning badiiy-estetik funksiyasi takomillashganligi kabi holatlarda ko‘rinmoqda. Bularning yaxlit umumiy hosilasi sifatida inson ruhiy olamiga chuqurroq kirish, uning botiniy qalb dunyosini, turli sajiya qutblarini, falsafiy-psixologik tasvirning serqatlam voqelik va shaxsdagi turfa evrilishlarni badiiy tadqiq etish she’riyatimiz mohiyatini belgilovchi mezonga aylandi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, istiqlol davri she’riyatimizda bugungi kun nafasi, hozirgi davr ruhi – mustaqillik sharofatining millat kishisi kamolotidagi o‘rni, erkin hayot, ozod Vatan tuyg‘usi va milliy iftixor hissini ifodalash yetakchi mavzuga aylandi. Bu motivlar talqiniga yondashuvda ham ijodiy o‘ziga xoslikni ko‘ramiz. Jumladan, Iqbol Mirzo, Mahmud Toir, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid she’rlarida istiqlol samaralari bevosita publitsistik ruhda yuksak ko‘tarinkilik bilan madh etilsa, Halima Xudoyberdieva, Matnazar Abdulhakim, Xosiyat Rustamova she’riyatida esa bilvosita, turli mavzudagi she’rlarning falsafiy xulosalari lirik chekinishlarda kuylanadi.

Ma’lumki, majoziy-ramziylik, obrazlilik, falsafiy mushohadakorlik, badiiyat va uslub jihatdan o‘ziga xoslik bugungi she’riyatning tub xususiyatlaridir. Yetuk

¹ Храпченко М. Б. Творческая индивидуальность писателя и развития литературы. – М: Художественная литература, 1977.-С. 68.

shoirlarımız timsollarga asoslangan poetik idrok va ifoda, she'ni falsafiy, ibratli umumlasmalar bilan ma'no salmog'i va originalligini oshirishdan tashqari, ijod mahsulining hissiy ta'siri, go'zalligi va uslubiy ravonligiga ham alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu holat Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo kabi iste'dodli shoirlerimiz ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu qalamkashlarning ijod mahsullarini o'rganar ekanmiz, namunalardagi shakl va mazmun uyg'unligi, uslub va badiiyat jihatdan yuksaklik bizni o'ziga jalb qiladi. Ularning ijodida shakl va mazmun yaxlitlanib, she'ning salmog'i yanada ortadi. Ushbu benazir namunalarning kitobxon qalbini zabt etib kelayotgani bejiz emasligiga guvoh bo'lamiz.

Serqirra ijod sohibi, iste'dodli shoir va mohir tarjimon Matnazar Abdulhakim she'riyati avvalo, mavzu qamrovi kengligi, shakl rang-barangligi, poetik ma'no hamda shoir nigohining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Bu ijod ko'p asrlik badiiy tajribalar sarchashmasidan fayz va rag'bat olgan hamda betakror talqin, yuksak badiiylik, estetik did va mahorat bilan uyg'unlashgan ijoddir. Buni biz shoirning "Qorachig'dagi dunyo", "Oydinlik", "Fasllar qo'shig'i", "Javzo tashrifi" kabi to'plamlariga kiritilgan bir qator she'rlari misolida ko'rib o'tamiz.

Yig'lasa yosh to'kmay yig'laydi qushlar,

Qushlar bir hikmatni sezadi.

Behuda to'kilgan ko'z yoshlar

Dastavval qanotni ezadi ¹.

Yuqoridagi to'rtlikda ijodkor qushlar timsoli orqali shoir yuragining yashirin qirralarini, ijod olamiga oshno bo'lgan insonning iztirob bilan yonma-yon ekanligini va uning hech kimga ko'rsatmay yig'lashini nazarda tutadi. Shoirning yig'isidan paydo bo'lgan ko'z yoshlar o'zgalarga ziyon keltirmaydi, balki eng avvalo, uning qalbiga singib yuragini ezadi. Shoirning qalbi – bu shoirning qanotidir. Ijodkor bu mantiqiy ifodani badiiylik bilan bezab, kitobxonga taqdim etadi va natijada yuzaga kelgan go'zal to'rtlik dillarga jo bo'ladi. Qisqagina she'rda yuzaga kelgan yaxlit hayot haqiqati Matnazar Abdulhakimning naqadar

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: "Sharq", 2008. – B. 23.

yuksak iste'dod va teran badiiy tafakkur sohibi ekanidan dalolat beradi. Bu holatni shoirning quyidagi she'rida ham kuzatishimiz mumkin:

Kun-u tun, shom, azon ketadi,
Bog'laringdan xazon ketadi.
Lekin baxting – nozik bir mehmon,
Qiyin kelib, oson ketadi ¹.

Ushbu to'rtlikda ham avvalgisi kabi shoirning hayot va inson taqdiri haqidagi chuqur mulohazalari aks etgan. Bu she'rdagi ijodkor vaqtning va baxtning inson uchun naqadar muhim tushuncha ekanligini, har bir soniya bizni baxtga eltuvchi yoki aksincha, baxtdan olislashtiruvchi lahza ekanligini o'ziga xos uslubiy ravonlik, takrorlanmas badiiy topilmalar va albatta, yorqin haqiqat ifodasi asosida ko'rsatib beradi. Inson hayotida Baxt atalmish beqiyos tuyg'u hamisha tansiq. Unga yetmoq uchun kimlargadir bir soniya kifoya, kimlar uchun esa uning zarrasi ham bir umrlik orzudir. Shoir baxtning inson hayotiga kirib kelishi va uni tark etishini tazod san'ati orqali ifodalaydi va bu holat she'rning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Matnazar Abdulhakim she'rlari, inson va uning kechinmalari, hayotiy haqiqatlar majmuyi va go'zal tuyg'ular tarannumini o'zida aks ettirganligi tufayli ham g'oyat qimmatlidir. Matnazar Abdulhakim – o'ychan va intellektual mushohada shoiri. Uning fikrlash ko'lamiga, ko'ngil sarhadlariga butun dunyo sig'adi. Olam sevinchlari-yu tashvishlari, inson ruhiyati evrilishlari, ijodkorning yurak va aql mushohadasi orqali go'zallik bilan ziynatlanadi. Uning iste'dodi, avvalo, borliqni ziyrak kuzatish, undagi narsa va hodisalardan poetik, zalvorli mazmun topa bilishda ko'rinadi. Bunda inson va hayot muammosi talqini asosiy o'rin tutadi. To'g'ri, bu talqinda boshqa shoirlar ijodi bilan mushtarak jihatlar ham yo'q emas. Buni e'tirof etar ekan, Matnazar Abdulhakim ularni ikki guruhga ajratadi: “Umumbashariy monandlikdan kelib chiqqan tabiiy-tasodifiy o'xshashliklar va ta'sir tufayli kelib chiqqan o'xshashliklar” ². Shoir bu mushtarakliklarga ijodiy yondashgan holda o'zini mustaqil va original fikrini

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 115.

² Matnazar Abdulhakim. Umumbashariy monandlik. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2007. 17-avgust.

aytishga intiladi. Shoirning ikki to'rtlikdan iborat muxtasar she'ri bunga dalil bo'lib, unda hayot falsafasi mohiyatini ifodalaydi va umr mantig'ini "uyqu", "uyg'onmoq" va "o'lim" kabi mushtarak tushunchalar ma'nosini yanada boyitadi. Bular shoir ta'kidicha, hayotimizga tortiq qilingan charchoqlar – umr yo'lidagi manzillar bo'lib, ularga munosabat quyidagi tugal umumlashma – aforistik mazmun kasb etadi:

Hayot bilan qo'shib bizlarga

Ko'p charchoqlar qilingan tortiq.

Asli o'lim – chinakam qurol

Asli o'lim – chinakam hordiq.

Boshqa izoh boshqacha talqin

Mantiqlardan mutloq tashqidir.

Uyg'onmoq – tirilmoq demak

Uyqu esa – o'lim mashqidir ¹.

Fano – bu biz yashab turgan dunyo, ya'ni o'tkinchi hayot. Odamzod uchun sinov davri. Baqo – abadiy hayot. O'limdan keyingi davr baqoda mujassam bo'ladi. Lekin shoirni bu dunyoning ahamiyati, uning mohiyati, berilgan imkoniyat ko'lami ko'proq qiziqtiradi. Chunki boqiy dunyo saodatiga erishmoq uchun odamzod o'zligini namoyon qilishi, Ollohning marhamatiga sazovor bo'ladigan amallar bilan yashashi darkor. Shoirning g'oyaviy-badiiy niyati keyingi bandda oydinlashgan. Uyg'onmoq va uyqu, tirilmoq va o'lim o'zaro zid tushunchalar orqali umr ibtidosi va intihosining falsafiy ta'rifi beriladiki, bu kitobxonni o'ylashga da'vat etadi.

Matnazar Abdulhakim she'riyati o'zining salmog'i va mazmundorligi, uslubiy xususiyatlari, mavzular ko'lamining kengligi bilan o'ziga xosdir.

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent. "Sharq", 2008. – B. 93.

1.2. Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she'riyatida muhabbat tasviri

Istiqlol davri o'zbek she'riyati, jozibadorligi, yangicha ohanglari va tasviriy xususiyatlari bilan o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Uslubiy va shakliy izlanishlar, badiiy tafakkurning yangilanishi, inson qalbi va ruhiy kechinmalari, inja tuyg'ularining yorqin tasviri ushbu she'riyat asosini tashkil qiladi. Bunda, ayniqsa, badiiy tafakkurning ahamiyati beqiyos. Adabiyotshunos N. Rahimjonov ta'kidlaganidek, "Serqirra va serqatlam hodisa – badiiy tafakkur tushunchasi san'atkorning fikrlash tarzida zuhur topgan falsafiy-axloqiy, ijtimoiy, siyosiy qarashlarining muayyan hosilasidir" ¹. Istiqlol davri o'zbek she'riyati to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, biz, bevosita ushbu davrda yaratilgan eng sara asarlarga murojaat qilamiz hamda adabiy jarayonni bu davr she'riyatining yetakchi vakillaridan shoir Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she'riyati misolida o'rganamiz.

Ustoz shoir Matnazar Abdulhakim ijodi falsafiy teranlikka, betakror tashbehlarga va hikmatga yo'g'rilgan. Shoir ijodida ayniqsa inson qalbining bebeho boyligi bo'lgan muhabbat tuyg'usi o'ziga xos tarzda tarannum etiladi. Shoir qalamiga mansub "Sirtqi saboq", "Bir sen o'zing mening birinchi, hamda boshqa muhabbatlarim", "Majnuntollar", "Diydor" kabi she'rlar ana shunday namunalar sirasiga kiradi. Ijodkor o'zining "Afsona" she'rida muhabbatni quyidagicha ta'riflaydi:

Ming tomirga berar qutlug' azob tob,

Muhabbatdan boshqa shafqatlar – zulm.

Muhabbat bor ekan, zulumot – oftob,

Muhabbat yo'q ekan, hayotlar – o'lim ².

¹ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: "Fan", 2007. – B. 4.

² Matnazar Abdulhakim. Qorachig'dagi dunyo. – Toshkent: "Yozuvchi", 1997. – B. 29.

Yuqoridagi bandda “Muhabbatdan boshqa shafqatlar – zulm” jumlasining ishlatilishi shoir estetik didining naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Bunday betakror jumlar, aniqroq aytganda, hikmatlar kitobxon qalbini larzaga keltiradi. She’rda qat’iyat bilan hukm tarzida aytilgan bu fikr asl haqiqat. Zero, oshiq uchun muhabbatdan boshqa barcha shafqatlar zulmdek ko‘rinishi ayon. Ijodkor muhabbatni zulmatni yoritgan oftobga qiyoslaydi. Chindan bu tuyg‘u zulmat qalblarni yoritib, insonni ezgulikka chorlaydi. Dunyoni asraguvchi buyuk kuch ham insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatidir. Ijodkor ana shu oddiygina fikrni shoirona go‘zal tashbehlar bilan uyg‘un holda she’rga soladi. Aslida, adabiyotning bosh maqsadi ham inson ruhiy dunyosi va ichki olamining teran haqiqatlarini gavdalantirishdan iboratdir. She’rning keyingi bandida shoir fikrini quyidagicha davom ettiradi:

Muhabbat bo‘lmasa, kulgular – ko‘z yosh,

Hayot inkor bo‘lar, bo‘lar umr rad.

Yuqoridagi satrlarda ijodkor, muhabbatsiz hayotning ma’nosizligini va umr kechirmoq behuda ekanligini bayon qiladi va bu tuyg‘uni inson hayotining mazmuniga tenglashtiradi. Misralarda ko‘z yoshlar va kulgularni zidlash orqali ta’sirdorlikni yanada kuchaytiradi. Ushbu she’rda shoir tomonidan aytilgan har bir fikr yangiligi, hali qalamga olinmaganligi bilan kishini hayratga soladi. Jumladan, o‘z yorini tanib, unga tomon oshiqib, qafasidan otilib chiqmoqqa shay bo‘lgan oshiq yuragining holati: “Talpinishlar tugar. Qattiq siltanib, Hamma tomirlarin uzadi yurak” tarzida ta’sirli ifoda etiladi. Bu yangicha ifoda tarzi, nafaqat mazmun jihatidan, balki badiiyat jihatdan ham g‘oyat latifdir. She’rning so‘nggi bandida shoir o‘z fikrini shunday yakunlaydi:

Muhabbatdan boshqa hamma eshik berk,

Muhabbatdan boshqa hamma osmon tor.

Ijodkor yuqoridagi misralarda oshiq uchun muhabbatdan boshqa yo‘l mavjud emaslini o‘zgacha yo‘sinda bayon etadi.

Matnazar Abdulhakim she‘riyati – falsafiy she‘riyat. Shoir ijodida, nafaqat uslubiy yetuklik, balki chuqur mulohazakorlik, badiiy tafakkur va serjilo ijodiy salohiyat ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir she‘riyatining yana bir xususiyati – barcha mavzulardagi she‘rlarda inson ma‘naviy olami va ijtimoiy-estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo‘yoqdorligidagi betakrorlikdir. Aslida shoir an‘anaviy mavzularga ham ko‘p murojaat qilgan, ammo bu jarayonda ularga yangicha, o‘ziga xos tarzda yondashgan. Hayotning boshqalarga pinhon nuqtalarini ko‘ngil ko‘zi ila ko‘ra olgan va buni o‘z ijodida yorqin tasvirlagan. Shoirning muhabbat mavzusidagi she‘rlarida ham o‘ziga xos fikrlar badiiy ifoda etiladi.

Hijron kunchi, ayriliq – kinchi,

Kulfatlarim sen, sen – baxtlarim...

Bir sen o‘zing mening birinchi

Hamda boshqa muhabbatlarim ¹.

Bu o‘tli satrlarni o‘qir ekanmiz, uni inson hayotining gultoji bo‘lgan ana shu go‘zal tuyg‘u mohiyatini anglatuvchi ijod namunasi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. She‘rda inson qalbi faqat bir marta va faqat bir insonni sevishga qodir. Shoir esa ana shu yagona muhabbati bo‘lgan insonni e‘zozlaydi. Boshqa muhabbatlarim deganda esa uning oddiy hayotiy ezguliklarini tushunish mumkin. Shoir hayotga shukronasini o‘zining mehrini barchaga ulashish orqali namoyon qiladi. Hijron, ayriliq bu shoir uchun kulfat va baxtsizlik, armon va umiddir. Lekin birinchi muhabbatning iztiroblari yagona, u qalb torlarini titratadi. Hali his qilinmagan titroqlar, iztiroblar azobida ham mahzunlik, ham baxtning totimlari aks etadi:

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 249.

Ko‘zlaringdan oqqan ko‘z yoshning,
Suv ekanin o‘ylaganimda.
Jon-jahonga hayot baxsh etgan
Shu ekanin o‘ylaganimda.
Boshqa barcha g‘am-tashvishlardan,
Holi bo‘lib qolgim keladi.
Baliq bo‘lib qolgim keladi,
Sholi bo‘lib qolgim keladi ¹.

Bu go‘zal she‘r ijodkorning naqadar keng dunyoqarash sohibi ekanini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, yor ko‘z yoshlarida baliq bo‘lib suzish holati aks etgan she‘rlar bo‘lishi mumkin, ammo sholiga aylanib qolish istagi bayon etilgan she‘r, aynan, Matnazar Abdulhakim ijodida uchraydi. Suv tafsili orqali shoir dunyo asosini tashkil qilgan to‘rt unurning hayotiy falsafa asosida mohiyatini ochib bera olgan. Ko‘z yosh va uning suv bilan bog‘lanishi, insonning tub mohiyati bilan mushtarak holda aks ettirilgan.

Shoir she‘riyatining yana bir xususiyati barcha mavzulardagi she‘rlarida inson ma‘naviy olami va ijtimoiy-estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo‘yoqdorligidagi betakrorlikdir. Aslida shoir uchun hamma mavzu an‘anaviy, unga yondashuv esa yangicha va o‘ziga xos. Bu xoslik odam va olamni she‘riyat ko‘zi bilan ko‘rish, hayotning boshqalarga pinhon nuqtalarini topish va salmoqdor poetik ma‘no bilan jilolantirishda namoyon bo‘ladi.

She‘riyat umumo‘zbek adabiyotining ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, boy an‘ana va tarixga ega. Hozirgi yangicha milliy badiiy tafakkur uning poeziyadagi tadriji XX asr boshlaridan, Cho‘lpon va Fitrat she‘rlaridan boshlanadi va bir necha

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 113.

avlod ijodiy tajribalaridan sayqallashadi. Xususan, XX asr 90-yillari istiqlol adabiyoti deb atalgan estetik hodisa vujudga keldi. Bu adabiyot va uning salmoqli tarmogʻi sheʼriyat yangilanayotgan milliy badiiy ongning, ijtimoiy-estetik tafakkurning mahsuli sifatida yuzaga keldi. Unda voqelik va insonni xolis va erkin koʻrish, poetik idrok etish va haqqoniy tasvirlash imkoniyati ustuvor boʻla boshladi, olam va odam munosabatini tabiiy ifodalash, shaxs ruhiyatidagi evrilishlarni turli rakurslarda tahlil etish imkoniyati kengaydi, inson qalbi, hissiy olami, koʻngil manzaralari butun murakkabligi bilan taʼsirchan tadqiq qilina boshlandi. Lirik qahramon tasvirida hayotiylik, haqqoniylik kuchayib, uning turfa taqdiri, oʻy-mulohazalari, maʼnaviy olamidagii betakrorlik oldingi oʻringa chiqa boshladi. Bularning barchasi bir qolipdagi tasvir shakllaridan voz kechish, yangi uslubiy izlanishlar, tasvir va ifodada rang-baranglikka intilishni taqozo etdi.

Mustaqillik davri sheʼriyati yangi ohanglar va maʼno teranligi bilan boyidi. Uning ifoda tarzi tub milliy, badiiy yutuqlardan ragʻbatlanish bilan birga jahon estetik tafakkurining ilgʻor anʼanalarini ijodiy oʻzlashtirish evaziga ham takomillashib boryapti. Falsafiy-ijtimoiy mazmun salmoqdorligi, ifodaning taʼsirchanligi, uslub shakllarining rang-barangligi, fikrning ohorli talqini kabi xususiyatlar sheʼriyatga oʻziga xos alohidalik bagʻishlamoqda. Inson moddiyati va maʼnaviyatining serqirra qatlamlarini tadqiq qilish, ruhiyatidagi koʻz ilgʻamas kechinmalar talqini orqali uni murakkab oliy xilqat sifatida yaxlit tasvirlash yetakchilik qilmoqda. Tabiiyki, bu jarayonda shakliy-uslubiy izlanishlar sohasida ijodiy tajribalar qilish, yangi kutilmagan ifoda yoʻllarini qoʻllash zaruriyati tugʻiladi. Shoir Matnazar Abdulhakim ijodini ham shu jarayon mahsuli sifatida tadqiq qilamiz. Uning sheʼriyati oʻziga xos uslubiy xususiyatlari bilan zamondosh shoirlar ijodidan farq qilishi tabiiy. Shoir koʻngil kechinmalarini hayot haqiqatlari bilan qiyoslab, goʻzal tashbehlarni yuzaga keltirgan.

Bizga diydor nasib etmadi

Soʻnggi visol oʻchmas xotira.

Azob bilan qalqib tushdilar
Ko‘zlaringdan pok ikki qatra.
Qo‘shildilar yonoqlarimda
Yodga solib bizlarning ahdni.
Taqdir bizga ravo ko‘rmadi
Ikki qatra ko‘z yoshdek baxtni ¹.

Shoir yuqoridagi satrlarda ayriliq azobini tortayotgan oshiq dardini, yanoqlarda qo‘shilib ketgan ko‘z yosh baxti bilan qiyoslaydi va taqdiriga visol bitmagan mahbub tilidan kuyunib so‘zlaydi. Bu satrlar ham, shubhasiz, ijodkorning topqirligidan dalolat beradi.

Shoirning qalbi muhabbatga to‘la edi. U beozor sevardi va o‘z she’rlarida ham ana shu xokisor ishqni ulug‘lardi, muhabbatni baxtdan ziyod deb bilardi.

Kel, yaxshisi sevgimdan hayiq,
Bir umr bo‘l, mendan ehtiyot.
Yashirmayman men – baxtga loyiq,
Lekin...lekin sen baxtdan ziyod!
Takrorlanmas eng avj pardasan
Qilar bo‘lsam o‘rtanib navo.
Sen shu qadar yuksaklardasan –
O‘zimga ham ko‘rmayman ravo ².

Shoir lirik qahramonining kamtar va xokisorligini, uning sevgi dardlari orqali go‘zal insoniy sifatlari namoyon bo‘lishini ko‘rsata olgan. Oshiq o‘z sevgilisini

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 116.

² O‘sha manba. – B. 144.

shu qadar kuchli va sof qalb bilan sevadiki, uning uchun ishq bu oliy xilqatga erishish baxtidan ham baland turadi. Zero, bu beqiyos ko'ngil sohibi ma'naviy yuksalish jarayonini bosib o'tayotgan ekan, ishq uning uchun qalb pokligi va iymon mustahkamligida aks etadi.

Judolik bu – bu mudhish bir xato,

Bu xatoga ikkov yo'l qo'ydik.

Achchiq-achchiq maktublar yozib,

Biz ularga shartta qo'l qo'ydik ¹.

Bu she'rda ijodkor judolikni – “oshiqlarning mudhish xatosi” deb ataydi va aynan ana shu xato oqibatida barbod bo'lgan sevgi qissasidan so'zlaydi. Judolik maktubiga chekilgan imzoning qalbg'a azob berishini, go'yoki chayon chaqishiga mengzaydi. Shoirning “Majnuntollar” she'rini talqin qilar ekanmiz, g'aroyib satrlar xotiramizga quyilib qoladi.

Men aqldan ozmay ketaman,

Majnun bo'lib qolasiz, tollar ².

Ha, Matnazar Abdulhakimga ko'ngilni o'rtaguvchi she'rlari bilan “tollarni Majnunga aylantirgan shoir” deya ta'rif bergimiz keladi. U ana shunday uyg'oq qalbli va teran fikrli inson edi. U go'zal she'rlarni yaratdi va o'z she'riyati bilan qalblarni larzaga soldi. Insonlarga odamiylikdan, betakror ishqdan saboq berdi va o'z nomini mangulikga abadiy muhrladi. Shoir o'z she'rlaridan birida:

Xudo ko'rsatmasin, bir botsam,

Mangu chiqmaydigan quyoshman ³.

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 147.

² O'sha manba. – B. 15.

³ O'sha manba. – B. 99.

deya yozgan edi. Ba'zan shoirlarning she'rlari ularning taqdiridan so'zlaydi. Ammo ustoz shoir Matnazar Abdulhakimning quyoshi hech qachon botmaydi, balki uning go'zal she'riyati orqali ko'plab yuraklarda abadiy porlab, nur sochib turadi.

Ijodkor shaxsining hayot, inson va uning qalbi, sof, samimiy hamda beqiyos tuyg'ular haqidagi teran mushohadalari, uslubdagi ravonlik, yangicha, o'ziga xos badiiy tafakkur, shakl va mazmun uyg'unligi, yuksak badiiylik mezonlari haqida so'z yuritar ekanmiz, bu o'rinda o'zbek xalqining yana bir suyukli shoiri Iqbol Mirzo she'riyati haqida to'xtalishimiz o'rinli bo'ladi. Zero, biz qalamga olayotgan inja tuyg'ular Iqbol Mirzo she'riyatida ham o'zining yuksak ifodasini topgan. Shoir ijodida muhabbat lirikasi alohida ahamiyatga ega. Ijodkor bu tuyg'uni o'ziga xos tashbehlar, samimiy fikrlar bilan ulug'laydi. U shunday yozadi:

Ko'ngilning yurakdan nima farqi bor –

Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar ¹.

Ijodkor oddiygina savolni o'rta qo'yish orqali bu jumloqni bir jumla bilan yechadi. Insonlar o'rtasida yurak va ko'ngil tushunchalarining farqi ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Yurak inson tanasining a'zosi ekanligi haqiqat, ammo yana boshqa bir tushuncha – ko'ngil tushunchasi ham mavjudki, u ilohiyat bilan bog'liq inson ruhining ifodasi sifatida tasvirlanadi. Shoir ana shu ikki tushunchani farqlaydi va shu o'rinda muhabbatning qudratini yana bir bor aniq ko'rsatib beradi.

Iqbol Mirzoning “Chorlasang” sarlavhali she'rida serjilo badiiyat va go'zal tashbehlar o'z ifodasini topgan. Ushbu she'rdan o'rin olgan “Ismimni tutmasang qushligim bekor”, “Men bilan qo'shilib qariydi bahor”, “Men qayga qo'yay bu ulkan bahorni”, “Bilaman, qismatim ko'zingdek qaro” kabi misralar shoir qalamining sehdan dalolat. Ijodkorning she'riy namunalarida “Sizni men o'zimdan asradim”, “Yuraginga egizak qiz”, “Jon saqladim sizni etib yod” kabi

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 97.

quyma satrlarga duch kelamiz. Shoir “Ariqlar yuzida” sarlavhali she’rida shunday yozadi:

Muzlar quchog‘ida isindi vido,

Uzilgan tor kabi ajralishdik biz.

Siz mag‘rur ketdingiz uygacha, ammo

Nechun yig‘lab bordi etiklaringiz?...¹

Yuqorida qalamga olingan bandda shoir oshiqlarning ayrilig‘ini torning uzilishiga qiyoslaydi. Vidodan entikib, “yig‘lab borayotgan etiklar” tasviri beixtiyor ko‘nglimizda titroq uyg‘otadi. Bu ilohiy dardni o‘z qalbimizda his qilamiz. She’riyatning asl mohiyati ham shunda emasmi? Axir she’riyat butun bir insoniyat quvonchini, dardini, baxtini, iztirobini o‘zida mujassam etib, unga oshno bo‘lgan har bir inson qalbida ana shu hislarni uyg‘otadi va bu bilan qalbni poklaydi. Ijod va mutolaa, chin ma’noda, ruhiy poklanish demakdir. Iqbol Mirzo she’riyati ham kitobxonlar qalbida yuksak tuyg‘ularga bo‘lgan cheksiz hurmat va ehtirom tuyg‘usini shakllantirib, qalblarni poklikka undaydi. Bu jihatdan Iqbol Mirzo she’riyati biz yuqorida tilga olganimiz ustoz shoir Matnazar Abdulhakim ijodi bilan uyg‘unlashgan. Har ikkala ijodkorning she’riy namunalarida insoniylik, sadoqat, mehr va muhabbat tuyg‘usi o‘ziga xos yo‘sinda, betakror va jilvakor tarzda tarannum etilgan. Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she’riyatidan o‘rin olgan tansiq tuyg‘ular tasnifiga bag‘ishlangan quyma satrlar qalblardan qalblarga ko‘chib boraveradi.

Betakror hissiy kechinmalar, go‘zal va samimiy tuyg‘ular, soddalik va yuksak badiiylik mezonlari haqida so‘z ketar ekan, bu o‘rinda o‘zbek xalqining jonkuyar shoiri Iqbol Mirzo she’riyati diqqatga sazovordir. Bu ijodkor o‘zining qaynoq she’rlari, teran mushohadalari bilan ko‘plab kitobxonlar qalbini zabt etib kelmoqda. Ijodkorning uslubi ravon, she’rlari badiiy topilmalarga boy. Buni

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 69.

shoirning “Ovora” nomli she’ridan olingan quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

Qachonki o‘zandan uziladi suv—
Uch kun to‘xtab qolsa, buziladi suv.
Yuragim ostida eziladi suv,
Ko‘zimga chiqolmay ko‘z yosh ovora ¹.

Ushbu she’rda oshiqning tushkun holati aks ettirilgan. Yuqorida kuzatganimiz shoir Matnazar Abdulhakimning qushlar haqidagi to‘rtligida ifodalangani kabi, bu ijod mahsulida ham shoir chindan chuqur iztirob chekkan insonning ko‘zidan yosh chiqmasligini, bu ko‘z yoshlar yurakdan sizilib, bo‘g‘izga zardob bo‘lib to‘lishini tiniq tasvirlaydi. Lirik qahramonning yoridan ayru tushgan holatini o‘z o‘zanidan uzilgan suvga qiyoslaydi va bu betakror tashbeh she’rning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Suv timsolini keltirish orqali shoir Ishqning chin inson uchun obihayot ekanligini bayon etadi. O‘zining “Seni sog‘inaman” nomli she’rida ijodkor oshiqning sog‘inch to‘la ko‘zlarini obi rahmat kutgan quduqqa qiyoslaydi:

Seni sog‘inaman,
mening ko‘zlarim —
Obi rahmat kutgan sahroyi quduq ².

Ushbu she’rning keyingi bandida ham shoir sog‘inch iztiroblarini teran aks ettiradi:

Seni sog‘inaman,
mening kiprigim—
qamishdek qovjirab, sinmoqda tinmay.
Endi unga parvo qilmaydi hech kim,
Endi undan hech kim yo‘nolmaydi nay...
(Agar nay bo‘lganda seni kuylardi.)

Ushbu she’rni tahlil qilar ekanmiz, go‘zal tashbehlariga ro‘baro‘ bo‘lamiz. Shoir oshiq kipriklarini sog‘inch chanqog‘idan toliqib, qovjiragan qamishga qiyoslaydi.

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. — Toshkent, 2007. — B. 29.

² O‘sha manba. — B. 67.

She'ning har bir bandi "Seni sog'inaman" jumlası bilan boshlanadi va bu o'ziga xos musiqiy ohangdorlik kasb etadi. Yuqoridagi bandning oxirida shoir, oshiqning chuqur iztirobini, amalga oshmog'i dushvor bo'lgan armonini tasvirlaydi. Oshiqning kipriklari nay bo'lganda yorini kuylashi tasvirini o'qib, har qanday qalbgaga titroq tushadi, she'rdagi badiiylıknıng siri ham ana shunda. "Shoir she'riyatı janriy rang-baranglıgi, mavzular xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. Bu she'riyat asosini Vatan, muhabbat, ezgulik kabi boqiy tushunchalar tashkil etadi. Ayniqsa, ijodkorning ishqiy lirikasi badiiyati, go'zal tili, ohangi bilan o'ziga xos bo'lib, ularda muhabbatning goh jo'shqin va masrur goh iztirobli kechinmalari tabiat hodisalari fonida ifoda etilishi kuzatiladi:

Senga xatlar yozdim, yetib bormadi,

Yomg'irlarda qolib qunishdi kaptar.

Mahzun kuy taratdi yomg'ir torlari,

Yurakka ko'ylakdek yopishdi dardlar.

Tashbeh, tashxis bilan ziynatlangan bu misralarda ishqdan ozorlangan oshiq ruhiyatı aks etgan. Sevikli yorgaga yozilgan maktubining yetib bormaganlıgini shoir tabiatdagi manzaralarga uyg'un holda tasvir etadi: yomg'irlarda qolib qunishgan kaptar, uning ezib yog'ishi, dardning yurakka ko'ylakdek yopishishi. E'tibor berilsa, bunda yomg'ir torlari shoirning badiiy topilmasi, uning mahzun kuy taratishi esa tashxis, ayni chog'da, tashbeh ham. Chunki yomg'irning shitirlashi mahzun kuyga qiyoslanyapti "¹.

She'riyat dunyosi – farahbaxsh dunyo. Bu olam fuqarosi bo'lish ham sharaf ham baxt. Yurakdan yonib kuylash, xalq dardini o'z dardi deb bilish, uning istiqbolini ko'rib g'urur va iftixor tuyg'usini tuyish shoir uchun qismat deyish mumkin. Bugungi o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan bo'lmish Iqbol Mirzo she'riyatini biz chin ma'noda yurakdan yurakka ko'chgan she'riyat deb atashimiz mumkin. Shoir o'zi haqidagi xotiralarida unga muhabbat qalam

¹ Quvvatova D. Iqbol Mirzo she'riyatining poetik xususiyatlari. // O'zbek tili va adabiyoti. 2018. № 5 – B. 45.

tutqazganligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, Iqbol Mirzoning ushbu tuyg‘u tarannum etilgan har bir bitigi beqiyos darajada go‘zaldir. Shoir ijodida bu mavzuda yaratilgan she’rlar salmoqli qismni tashkil etadi. Zero, she’r ham muhabbat ham qalblarda yaraladi. Iqbol Mirzo mehr-muhabbatni tarannum etar ekan, shu bilan bir qatorda ona yurtga bo‘lgan sadoqatni va cheksiz muhabbatni ham yuksaklarga ko‘taradi. Iqbol Mirzo she’riyatining asosiy xususiyati uning ijodida hali qalamga olinmagan go‘zal tashbehlarining yaqqol ko‘zga tashlanishidadir. Bunga misol qilib quyidagi she’riy parchani keltirishimiz mumkin.

Oy botadi – yulduzlarning habibi,

Tong otadi, ta’nasi yo‘q samimiy.

Tabiatning qonunidek tabiiy –

Istaysizmi – yo‘qmi, sizni sevaman ¹.

Ushbu satrlarda shoir insonning muhabbat uchun yaratilganligini, kimgadir ko‘ngil qo‘yish yaratganning inoyati ekanligini: “Tabiatning qonunidek tabiiy“ deya izohlaydi. Ma’lumki, oshiq o‘z mahbubasini hech qanday ta’nasiz va sababsiz beg‘araz sevadi. Ana shu tuyg‘u yuqoridagi misrlar qatiga singdirilgan. Oy va yulduzlarning bir-biriga bog‘lanishida ham qandaydir muhabbatning azaliy qonuniyati aks ettirilgandek go‘yo. Bilamizki, shoir ko‘ngliga armonlar begona emas. Unda amalga oshmas istaklarning cheki yo‘q. Ammo shoirlar hamisha ilinj izlab yashaydilar. Ijodkorning “Yodingda qolmoqchi edim” sarlavhali she’rida ana shu ilinj o‘z ifodasini topgan.

Fuzuliy lutf etib ketgan bir zamon,

Go‘zallar vafosiz, aldoqchi dedim.

Yoningda qolishga yo‘q edi imkon,

Men sening yodingda qolmoqchi edim ¹.

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 3.

Yuqoridagi satrlarni o‘qir ekanmiz, beixtiyor, imkonsizlik dardini his etamiz. Shoir bu she‘ri orqali jisman emas, qalban yaqin bo‘lish, ko‘ngil qo‘ygan insoningning yonida emas, balki yodida qolish muhim ekanligini ta’sirchan ifodalaydi. Shoir she‘riyatidagi sodda va ravon satrlar kishini o‘ziga jalb qiladi. Uning “Bahorning ilk kuni...” nomli she‘ri shunday boshlanadi:

Bahorning ilk kuni – birinchi marta,

Men seni uchratdim birinchi marta...²

Yuqoridagi baytda biz shoir qalamining kuchini his qilamiz. U oddiy so‘zlar orqali aniq voqelikni aks ettiradi.

Iqbol Mirzoning “Afsus” she‘rida yorini sog‘ingan oshiqning telefon qarshisidagi tarqoq o‘ylari ifodalanadi. Ushbu she‘rda shunday satrlar bor: “Bizni bog‘larmidi shu chuvalgan sim. Taqdir rishtalari uzilgan bo‘lsa”³. Darhaqiqat, ko‘ngil rishtalarini taqdir rishtalari bo‘lmas ekan, oshiqdar holi tangdir. Ushbu she‘rda sog‘inch o‘rtagan shoirning dardini quyidagi satrlar orqali bilib olishimiz mumkin.

“Ko‘hi qofga qadar ketardim, Laylim

Ko‘zingni bir bora ko‘rmoqlik uchun”⁴.

Oshiq ko‘nglidagi sitamlar, uning yor vasliga erishmoq uchun har narsaga tayyor ekanligi haqiqiy oshiqlik darajasini belgilaydi. Ko‘hi qof kabi afsonaviy makonga ketmoq, albatta, mubolag‘a san‘atiga misol bo‘lishi tabiiy. Lekin bu san‘at orqali lirik qahramon ishqda sobitligini yanada yorqin ko‘rsatadi. Quyidagi she‘rda ijodkor muhabbat qudratini go‘zal tarzda tasvirlab beradi:

Esingizda bormi?

Hech kim yo‘q edi,

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 3.

² O‘sha manba. – B. 97.

³ O‘sha manba. – B. 84.

⁴ O‘sha manba. – B. 97.

Hech narsa yo‘q edi sevgidan bo‘lak.

Qornimiz muhabbat bilan to‘q edi,

Sevgimiz – boshpana, sevgimiz – ko‘ylak ¹.

She‘riy misralarda shoir insonning ko‘ngil hotirjamligi uning suyukli kishisi bilan birga ekanligiga bog‘liqligini teran aks ettiradi. Yuqoridagi satrlarda shoir insonlarning bir-biriga ko‘ngil qo‘yishi uchun tashqi ko‘rinish unchalik ahamiyatga ega emasligini, balki ruhiy yaqinlik eng keragi ekanini tasvirlaydi. Oshiq uchun u ko‘ngil bergan inson muhabbat timsolidir. U muhabbatni o‘z suyuklisining ismi bilan atay boshlaydi. Iqbol Mirzoning muhabbat mavzusidagi she‘rlarida pok insoniy tuyg‘ular, sevgan qalb kechinmalari va bu kechinmalar paydo qilgan oniy kayfiyatning mangu go‘zal va sodda ifodasi namoyon bo‘ladi. Shoir qalamiga mansub quyidagi she‘riy namunada ham ushbu holat o‘z ifodasini topgan:

– Seni obqochib ketaman!

Gulgun qo‘shiqlar mamlakatida

O‘tli o‘lan aytib o‘t-o‘lan aro.

Tillaqo‘ng‘izlarning saltanatida

Xonqizi bo‘lursan, men, mayli, gado...²

Yuqoridagi she‘r takrorlanmas badiiy topilmalar va go‘zal tashbehlarga boy. Misralarda ifodalangan “Gulgun qo‘shiqlar mamlakati”, “Tillaqo‘ng‘izlar saltanati” kabi betakror jumlarlar ijodkor qalami sehrini ifodalaydi. Shoir o‘tli o‘lan va o‘t-o‘lanlar tasvirini keltirish orqali oshiq qalbining otashin ohlarini ifodalash bilan birga misralarda musiqiy ohangdorlikni ham kuchaytiradi. O‘z yorini xonqiziga o‘zini esa gadoga qiyos qilayotgan oshiq tilidan so‘ylaydi. Bu o‘rinda “xonqizi” ifodasini qo‘llash orqali o‘ziga xos so‘z o‘yinini yuzaga keltiradi. Shoir, qalbida beg‘ubor, begard muhabbatni ardoqlab yurgan oshiq insonning kechinma va iltiroblaridagi, qarashlari va tutumlaridagi milliy ruhiyatni jonli tildan o‘rinli

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 97.

² O‘sha manba. – B. 64.

foydalangan, unga xos soddalik va ravonlik, teran fikrlarni ixcham tarzda ifodalovchi tasviriy vosita va badiiy usullarni ijodiga keng tatbiq qilgan holda aks ettiradi. U qoʻllagan poetik obrazlar esa, xalq ogʻzaki ijodiga, xalqning purhikmat va qochirimli ibora va ifodalariga borib taqaladi. Shoir qoʻllagan obrazlar va xalqona tashbehlar lirik qahramon kayfiyati bilan juda uygʻun tushgan va bunday holatning chizgisi jimjimador, kitobiy soʻzlar bilan emas, balki oddiy, teran xalqona soʻzlar vositasida amalga oshirilgan. Iqbol Mirzo ijodi inson ruhiy faoliyatining aqliy, hissiy va ruhoniylarini oʻzida mujassamlashtirgan, murakkab badiiy-tasvir vositalariga boy goʻzal sheʼriyatdir. Bu sheʼriyat – insonning goʻzallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shoir poeziyasida ilhom ufqlarining kengligi va yetuk isteʼdod uygʻunligi, ijodiy barkamollik va qaynoq qalb honishlari namoyon boʻladi.

Iqbol Mirzo ijodida milliy ruhning xalqona ohanglarda namoyon boʻlishi koʻp kuzatiladi. Shoir oʻz olami mohiyatini, yaʼni dunyoqarashi, muayyan kayfiyati, kechinmalarini, ruhiyatidagi toʻlqinlarni va hissiyot mavjlarini shu tarzda ifodalaydi. Uning sheʼrlarining asosiy qismi barmoq vaznida bitilgan. Bu vazn esa adabiyotimizda qadimdan qoʻllanib kelayotgan anʼanaviy sheʼriy oʻlchov hisoblanadi. Xalq ogʻzaki ijodining barcha namunalari ham barmoq vaznida boʻlgan. Shuningdek, Iqbol Mirzo qoʻllaydigan sheʼriy til ham folklor namunalariga yondoshdir. Uning sheʼrlarida xalq qoʻllaydigan termalar, hikmatlar, qisqa va loʻnda mazmundor soʻzlar, xalqona taʼsirli obrazlardan unumli foydalanilgan. Iqbol Mirzo ijodida sayqal topgan satrlar behisob. Shu sababdan ham uning bitganlari shoir yuragidan sheʼrxonlar yuragiga koʻchib boraveradi.

Yuksak isteʼdod sohiblari boʻlmish Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodi sheʼriyatga yangicha ifor va ohanglar olib kirdi. Bu ijodkorlar tomonidan yaratilgan namunalarda ezgulik, poklik, samimiyat, muhabbat oʻziga xos tarzda ulugʻlanadi. Inson qalbi nafis chizgilarda namoyon boʻladi. Ularga xos boʻlgan mushtarak xususiyatlar esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish, bu mazmunni goʻzal, taʼsirchan ifodalash, uslubiy ravonlik va yuksak badiiy tafakkur uygʻunligidir.

II BOB. ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA MAVZULAR RANG-BARANGLIGI

2.1. Matnazar Abdulhakim she‘riyatida mavzu va mahorat masalasi

She‘riyat bu inson qalbini larzaga keltiruvchi, yashirin hislarni uyg‘otuvchi buyuk kuch. She‘r faqat qog‘ozdagi qofiyali so‘zlar emas, balki ilohiyatga bog‘liq bo‘lgan ilhom mahsulidir. Shoir uchun esa u, albatta, bebeho ko‘ngil mulkidir. Ba‘zan shoirlarning dil armug‘oni biz uchun ham eng qadrli bitiklarga aylanadi. Matnazar Abdulhakim she‘rlari ana shular jumlasidandir.

Matnazar Abdulhakim she‘rlari, avvalo, mavzu qamrovi kengligi, shakl rang-barangligi, poetik ma‘no hamda shoir nigohining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Ularning barchasiga xos mushtarak xususiyat esa hayot haqiqatlarini go‘zal badiiyat bilan jilolantirish, iste‘dod va hissiyot uyg‘unligini namoyon etish va fikrni ta‘sirchan ifodalashdir. Bunda shoir aruz va barmoq vaznlaridagi g‘azal, to‘rtlik, muxammas, doston kabi janrlar imkoniyatlaridan keng foydalangan. Uning she‘riyatida majoziy-falsafiy talqin eng muhim jihatlardan biridir. Matnazar Abdulhakim she‘riyati ko‘p asrlik badiiy tajribalar sarchashmasidan fayz va rag‘bat olgan hamda betakror talqin va mahorat bilan o‘zaro uyg‘unlashgan she‘riyatdir. Umuminsoniy pafos uning bosh g‘oyasini tashkil qiladi. Bu g‘oya fikr va tuyg‘u yaxlitligida badiiy sayqal topadi, avval qog‘ozga, so‘ngra ko‘ngillarga ko‘chadi. Shoirga xos teran nigoh va ohorli badiiy topilma shundan tug‘iladi. Bunda fikr va kechinma uyg‘unligi, ramziy obrazlilik alohida bo‘rtib turadi, so‘z asosiy ma‘no tashuvchi vosita bo‘lib, shoirning fikricha, “So‘z aslida o‘ziga xos bir podshohdir. Agar so‘z ezgu bo‘lsa, u Anushervoni odil kabi, agar yovuz bo‘lsa, Qorun yanglig‘”¹. Ularni o‘qir ekanmiz, biz go‘yo o‘zimizni sarhadsiz ko‘ngil kengliklarini sayr qilayotgandek his qilamiz. Bu she‘rlarni yodlash shart emas, ular o‘z-o‘zidan qalbga ko‘chadi. Shoir ijod namunalaridagi noyob o‘xshatishlar, betakror tashbehlar bizni o‘ziga jalb qiladi.

¹ Matnazar Abdulhakim. Muhtasham ruh. // Urganch oqshomi. 2002. 19-yanvar

Shoir har bir hodisadan o'ziga xos ma'no kashf etadi. Hayot falsafasi qirralarini teran anglash orqali uni badiiy inkishof etadi. Har bir mazmunda yuksak badiiy mahorat namunalari aks etadi. Shoirning mahorati hali hech kimning xayoliga kelmagan oddiygina fikrni falsafiy ruh uyg'unligida yuksak badiiyat bilan jilolantirib, go'zal va o'ziga xos bitiklar yaratishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday go'zal bitiklarga misol qilib "Sirtqi saboq" she'rini keltirishimiz mumkin:

Men seni sevaman...o, qursin esim,

Nahotki "Men" – ega?.."Sevaman" – kesim?..

Qoidaga mahkummiz buncha nega biz?

Muhabbat emasmi, axir egamiz? ¹

She'rda ijodkor insonning ichki kechinmalarini tilshunoslik qoidalari asosida ifodalash bilan bir qatorda, muhabbatning hech qanday qoidaga bo'ysunmaydigan buyuk kuch ekanini anglatishga urinadi. Gapdagi ega, kesimlar sintaktik ma'no ifodalashi bilan birga gapning mazmunida ham rol o'ynaydi, albatta. Lekin gap muhabbat haqida ketar ekan, Uning inson hayotidagi o'rni ta'kidlanadi:

Ruhimga hech tinmas g'amdan ta'qiblar,

Maktublar ishq dardin mahzun iloji.

O'qir, konvert yirtib, xatim raqiblar,

Yurakni olgandek ko'ksimni ochib.

Sevgi har bir qalb uchun o'zgacha tilsim. Bu tilsim uni ne ko'ylarga solishi dargumon. Bu sirlarning poyoniga yetish uchun esa u qanchadan-qancha g'am tog'laridan oshib o'tishi kerak. Oshiq o'z dardi-dunyosini faqat ma'shuqaga izhor qila oladi. Chunki buning sababchisi – U. O'z yoriga maktub bitish an'anasini davom ettirgan shoir uni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Dil izhori maktublar asnosida yetib borar ekan, ba'zan bu xatlar raqiblar qo'liga tushib qoladi.

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: "Sharq", 2008. – B. 236.

Yuqoridagi satrlarni o‘qir ekanmiz betekror tashbehlar xotiramizga o‘rnashadi. Shoir maktubining raqiblar qo‘liga tushishini tasvirlar ekan konvert ochilib, xatning begonalar tomonidan o‘qilishini, go‘yo kimdir ko‘ksini yorib, yuragini yulib olayotganiga qiyoslaydi. Ya’ni qalbidagi his-tuyg‘ulari raqiblar qo‘lida o‘z qadr-qimmatini yo‘qotib, o‘tmaslashib qoladigandek o‘kinadi.

Sening yo‘qlovingsiz hislar ham sag‘ir,

Xohi gar ishonma, xohi gar ishon.

Meni unutmabsan, xayriyat, axir,

Maktublar bitibsan xotirparishon.

Mumtoz adabiyotga xos an‘analarni mohirona davom ettirish shoir ijodida yetuk mahorat namunasidir. Yori tomonidan o‘zi uchun maktub bitilishi oshiq uchun katta quvonch, albatta. Lekin sevgilisining tashvishlar girdobida xayollari parishonligi ham qahramonimiz uchun bir imkoniyat. Bu misralarda shoir muhabbatga oshno bo‘lgan insonning boshqa barcha hodisalarni unutib, xotirparishon bo‘lib qolishini tasvirlaydi. Yorining aynan ana shunday holatga tushib, imlo xatolarga to‘la maktub yo‘llashini cheksiz sevgi sababi deb biladi va bundan shodlanadi. Shoir shunday so‘z o‘yini qiladiki, yorning imlo xatolari ham uning uchun jondan aziz va qadrlı ekanligi e‘tirof etiladi. “Meni sog‘insayding sog‘inganimdek, Jondan aziz imlo xatolaringni”.

Oshiq yorning vaqtini o‘g‘irlab uni hijronga solayotgan undalmalarga, otlarga, olmoshlarga va ayniqsa, kelishiklarga oshiqona adovat bilan qaraydi:

Qulflar sinsinlar, kel, eshiklaring,

Uyiga o‘t tushsin kelishiklarning.

Hayot o‘z qonuniyatlariga ega. Sevgi esa bu qonunlarga bo‘ysunmaydigan yagona hodisa. Chunki uning uchun hayot qonunlari bir to‘siq. Har bir to‘siqda esa sinovlar bo‘y ko‘rsatadi. Shoir ushbu she‘rida sevishganlar maktublari orqali

ko'ngil gavhari bo'lmish muhabbat injalarini kashf etadi. She'rni talqin qilar ekanmiz, grammatik qoidalar shakl bo'lsa, mazmunda esa ayriliq, hijron sitamlari tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz.

Matnazar Abdulhakim she'rlarida muhabbat mavzusi ba'zan umidsiz oshiq ko'ngil ohlari tarzida ifodalansa, ba'zan o'z sevgisidan ko'ngli osmon qadar yuksalgan qahramon sifatida gavdalanadi. Muhabbatga e'tiqod va sadoqat uning asarlari qatiga singdirilgan va bu shoirning ma'naviy qiyofasida mujassamlashgan. Shu sababli, uning sevgi-sadoqat mavzusidagi she'rlarida nafaqat go'zal hissiyotlar, balki aql-u zako jilvalari ham ufurib turadi. Shoir ijodida fikr va kechinmaning o'zaro uyg'unligi chuqur poetik ma'no kashf etadi. Ijodkorning o'ziga xos ramziylik ochib berilgan "Makrni kasb qilib...", "Yovshan", "Sahovat", "Faxriya", "Arz", "Qarg'a", "Har yulduz" kabi she'rlarida ham go'zal poetik lavhalar yaratilgan. Matnazar Abdulhakim uchun she'r ruhiy sog'inch, shoirlik esa qismat. Shoir o'z burchini ana shu tushunchalar uyg'unligida ko'radi, "misralar bilan dardlashar ekan o'z borlig'ini" ijodkor sifatidagi "bisotini" shunday izohlaydi:

Ishqdan bo'lak titrog'im yo'qdir,

Yo'qdir she'rdan bo'lak hech larzam.

Do'stlarimdan boshqa hech kimim

Yerdan-ko'kdan boshqa hech narsam ¹.

Bu – shoirning ijod dasturi. Uning ma'no-mohiyati "ishq", "she'r", "do'st", "yer-ko'k" tayanch so'zlarining mantiqiy sintezida aks etgan. Darhaqiqat, azaliy ishq – ijodkor qalbidagi bezovtalik va dard, dilning yagona mulki! Do'stsiz va yer-u ko'ksiz esa shoirning o'zligi yo'q. Chunki oliy xilqat – inson ruhi va jismi ular bilan payvanddir. Bu haqiqatni shoir alohida qayd etadi:

Dardman so'zim she'rniki bo'lsin,

¹ Matnazar Abdulhakim. Oydinlik. – Toshkent. "Yozuvchi", 1997. – B. 35.

Ruhim bo‘lsin seniki, osmon!

Va jasadim yerniki bo‘lsin.

Shoir she’riyatida voqea va kechinmalar talqinida falsafiy ruh, purma’no umumlashma saboqlar ustuvor. Shoir nigohi har bir narsa, fakt va hodisa zamiridan ohorli va ibratomuz poetik ma’no topa oladi. Shoir she’riyatining yana bir xususiyati – ijod namunalarida fikr va ohang jimjimadorligi, inja tuyg‘ularning obrazli tasvirlarga boyligidir. Ijodkor qo‘llagan ayrim individual istioralarda hissiy tafakkur va falsafiy mushohada tufayli reallashadigan tushunchalarni ko‘chma ma’nodagi obrazlarda yig‘ish, muayyan tizimga solish hamda baholash mumkin. Shoirning “Agava daraxti” she’rida bu holat har jihatdan mukammal va ohorlidir. Unda umrida faqat bir bora gullab, so‘ngra qurib qoladigan agava daraxti guli obrazi xususida bahs-mushohada yuritiladi. Aslida, gul shodlik, nafosat, muhabbat ramzi sifatida inson dilini yayratishi, qalbiga xushnudlik baxsh etishi bilan e’zozlidir. Uning qisqa umri ezgulik bilan hayotiy mazmun kasb etadi, keyin qurib qolishi esa jismoniy yo‘qotish bo‘lsa ham yashagan paytdagi tarovati boqiy ma’naviy go‘zallikka aylanadi. She’rda bu xususiyatlar talqini shu qadar teran, bir-biridan uzoq ko‘chma ma’nolar uyg‘unligi asosida beriladiki, natijada yakuniy fikrda bu ko‘chim gulning g‘oyat qisqa, lekin mazmunli umri mohiyatini ochib beradi. Bunda agava daraxti majoziy ma’noda fidoyi inson, uning guli ezgulikka daxldor umrdir.

Hayot falsafasining badiiy in’ikosi bo‘lgan bu she’rda umr lahzalarini guldagi turfaligi o‘n ikki to‘rtlikning har birining ohirgi ikki misrasida ijodkor izohida ko‘chma ma’nodagi sinonim (zeb-ziynat, orzu-umid, qayg‘u-hasrat) va antonim so‘zlarda (visol, hijron, shodlik, g‘am) o‘z ifodasini topadi. “Qismat hukmi – hayot va o‘lim chambarchasligini qiyg‘os gullar ijrosida” ko‘rgan shoir oxirgi ikki misrasida gul metaforik obrazining tub mohiyati haqida shunday xulosaga keladi:

Agavaning guli – bu bir baxt

Bu mangu bir hayotbaxsh o‘lim¹.

Darhaqiqat, gulning barvaqt so‘lishi inson qismatidagi “hayotbaxsh o‘lim” ramzidir. She’rdagi qamrovli poetik ma’no, sodda va ravon uslub, teran nigoh va falsafiy idrok hosilasidir. Uzoq umri davomida bir marta gullab, gullari urug‘langach qurib qoladigan bu daraxt timsolida katta hayotiy haqiqatni ifodalash – mahorat. Shoir bularga erishgan. She’r timsoliy tafakkur namunasi bo‘lib, agava – inson, uning guli esa inson faoliyatining samarasi ramzidir. O‘n ikki to‘rtlikning har birida “agavaning guli” birikmasining takrori asosiy tushunchani bo‘rttirishga qaratilgan va uning sifati inson umri takomilidagi musbat va manfiy qutblarning badiiylashgan ifodasidir. Gul ta’rifidagi turli hislatlar (zeb, ziynat, haqiqat, xasrat, faryod, motam) asli inson qoldiradigan yaxshi va yomon amallarga ishoradir. Bu fikr, ayniqsa, she’rning yakunlovchi bandida yorqin aks etgan:

Bu – Qays guli, bu – Majnun guli,

Gar uzatsam qovrilgay qo‘lim.

Agavaning guli bu – bir baxt,

Bu – mangu bir hayotbaxsh o‘lim.

Matnazar Abdulhakim ijodida faylasufona donishmandlik namoyon bo‘ladi. Shoir she’rlarida badiiy mahorat va uslubiy o‘ziga xoslik, falsafiy mulohaza, fikriy teranlik va yuksak badiiyat jilvasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mavzular rang-barangligi ushbu she’riyatga yanada ko‘tarinkilik baxsh etadi. Shoir, nafaqat, yozadi, balki hayotiy haqiqatlarni o‘z she’riy misralari orqali kashf etadi. Bu ijodkorning salohiyati va yetuk mahoratidan, donishmandligidan dalolat beradi. Matnazar Abdulhakimning she’riyatida salmoqli mavzular qalamga olingan. Ular orasida “Chayir qanotingiz” she’ri o‘ziga mazmuniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu she’rda shoir sadoqatli qushlar – turnalarga xitob qiladi. Shoir turnalarga

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent. “Sharq”, 2008. – B. 43.

xitob orqali ularni o‘z oshyonini tashlab ketmaslikka undaydi va buni quyidagicha bayon etadi:

Chayir qanotingiz shamshirdek keskir,

Hademay yetasiz issiq ellarga.

Lekin bo‘laver mang bu qadar sezgir,

Mensimasdan qarang sovuq yellarga.¹

Ma’lumki turnalar har yili sovuq kunlarda issiq o‘lkalar tomon uchib ketishadi, bu tabiat qonuni, ammo buning zamirida qushlarning o‘z qadrdon go‘shasini tark etib, olis manzillar sari ketishi va jonajon oshiyonni qo‘msash iztirobi yashiringan. Donishmand shoir ana shu iztirobni anglay olgan. Shoir qushlarning sovuqdan chekinishini xato deb bilmaydi, biroq ularni “bir qutlug‘ hikmat” dan ogoh etib, qadrdon makonlariga nisbatan sadoqatga chorlaydi:

Siz haq. Bunga hech kim shubha qilmagan.

Bugun men ilk daf’a shubha qilaman.

Turnalarim. To‘xtang. Men siz bilmagan

Qutlug‘ bir hikmatni bilaman.

Shoir oddiy va sodda haqiqatni, ya’ni dunyoda tirik zot borki o‘zi tug‘ilib o‘sgan go‘shadan ayro tushsa, ko‘ngli hotirjam bo‘la olmasligini mana shu qushlar timsolida bayon etadi. Shoir uchun bu qushlar juda aziz. Shu sababdan ham u “turnalarim” deya xitob qiladi. Turnalar uchib ketgach, ularni qo‘msab, kuz kabi so‘lishini va ular qaytgach esa, bahor yanglig‘ barq urishini aytadi. Shoir turnalarni o‘z hayotining bir parchasi sifatida tasavvur qiladi va hissiyotlarini quyidagicha bayon etadi:

Axir men siz kelgach barq urib necha,

¹ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent. “Sharq”, 2008. – B. 40.

Siz ketgach necha bor so‘lib ko‘rganman.

Sizni tanimadim bugun yo kecha,

Men sizning yurakda bo‘lib ko‘rganman.

Shoir turnalarga “men sizning yurakda bo‘lib ko‘rganman” deya xitob qiladi. Darhaqiqat, ijodkor o‘zining o‘tkir nigohi orqali biz ko‘ra olmagan turfa jumboqlarning yechimini osongina ilg‘ay oladi. U turnalar misolida inson ko‘ngliga begona bo‘lmagan ajib hislarning yorqin ifodasini ko‘rsatib beradi. U turnalarning tashrifi va abadiy qolishi misolida boqiy bahor va boqiy saodatni ko‘radi. Ijodkor bu hodisani ulkan mo‘jizaga qiyoslaydi. Umr bahorining, go‘zal kunlarning abadiy ekanligini turnalar tashrifi bilan chambarchas bog‘laydi:

Turnalarim ketib qolmasangiz, bas,

Shunday bir mo‘jiza berajakdir yuz –

Boshlanishga qishning yuzi chidamas,

Tamom bo‘lay desa, uyaladi kuz...

Matnazar Abdulhakim she‘riyati xalqchilligi, ravon uslubi, shakliy rang-barangligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida majozilikning bir qismi shaxs talqinida ko‘rinadi va ular o‘zining ta’sirchan va chuqur falsafiy-psixologik mazmunni ifodalashi bilan e’tiborga loyiq. Insonda siyrat va surat mukammalligi va ma’naviy-ruhiy komillik g‘oyasi ijodkor tomonidan g‘oyat teran aks ettirilgan. Matnazar Abdulhakim she‘riyatida mavzular ko‘lami va shoirga xos uslubiy mahorat mushtarak. Ijodkor tomonidan yaratilgan har bir she‘riy namuna kitobxon qalbidan chuqur joy olishi bejiz emas. Matnazar Abdulhakim tomonidan yaratilgan har bir she‘rda yuksak badiiy tafakkur, o‘ziga xos uslubiy talqin, badiiyat jilolari, inson qalb kechinmalarining yorqin tasviri, yetuk ijodiy mahorat va shoirona teran mushohada, falsafiy fiklar uyg‘unligi, aql-u zako jilvalari namoyon bo‘ladi.

2.2. Iqbol Mirzo ijodida mavzu va poetik ifoda mushtarakligi

O‘zbek she’riyatining yetuk namoyondalaridan biri, betakror so‘z san’atkori Iqbol Mirzo ijodi yuksak badiiyati, samimiy his-tuyg‘ularga yo‘g‘rilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning “Aytgil do‘stim, nima qildik Vatan uchun”, “Sizni kuylayman”, “Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas” kabi bir qancha to‘plamlarida hali qalamga olinmagan, ohorli mavzular talqiniga duch kelamiz. Shoir bu tushunchalarni butunlay yangicha ifodalaydi. Asarning nechog‘lik aslligini badiiy-estetik salohiyatining qay darajada yuqori ekanligini ijodkor tomonidan poetik obrazlar zimmasiga yuklangan yangicha mazmun orqali bilib olishimiz mumkin.

Iste’dod yorqin shaxs, betakror shaxsiyat egasi degani. So‘z san’atkori faoliyatining ahamiyati, u qaysi masalaga munosabat bildirmasin, avvalo, nuqtayi nazari va estetik xulosaning xolisligi, yangiligi – originalligi bilan belgilanadi. Bu ming-ming asrlik badiiy madaniyat tarixida o‘z tasdig‘ini topayotgan oydin haqiqatdir. San’atkor o‘zini yo‘qotmasligi, o‘zligini saqlab qolishi, namoyon etishi uchun insoniyat dard tashvishi bilan yonib yashamog‘i, ko‘ngil amriga mudom quloq tutmog‘i darkor. Biz so‘z yuritayotgan hassos shoir Iqbol Mirzo she’riyati ham qalblarga darhol yo‘l topadi. Ammo uning she’riyat olamiga oshno bo‘lish oson emas. Bir qarasangiz, ular oddiygina, ammo ularning zamirida yashiringan mazmun, tub mohiyat g‘oyat zalvorli va insoniyat uchun ahamiyatlidir. Har bir ijodkordagi o‘ziga xos badiiy olam, betakror kompozitsion yechim, alohida ohang va ularga uyg‘un badiiy til yetuk asarlar yaratishning asosini yuzaga keltiradi. Shoir Iqbol Mirzo ijodi oliyjanob, ulug‘vor maqsadga yo‘naltirilganligi, teran umumlashmalarga intilishi, ijod namunlarida tasvirning g‘oyatda tabiiy va yorqinligi, ifodada soddalik, milliylik, oddiy insonlarga nisbatan samimiy munosabat, yurt uchun qayg‘urish, ezgulik va muhabbatni ulug‘lash kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarannum etishi bilan ajralib turadi.

Shoir qaysi yo‘nalishda yozmasin, xoh u modern bo‘lsin, xoh an’anaviylik yoki oq – sarbast she’rlar bo‘ladimi, faqat va faqat to‘g‘ri yoza bilsa, shuning o‘zi

kifoya, degan edi bir suhbatda O‘zbekiston Xalq shoiri Iqbol Mirzo. Shoir “to‘g‘ri yozish” deganda haqiqat va haqqoniylikni nazarda tutgan, chunki shoir, avvalo, haqiqat kuychisi bo‘lishi lozim! Zero, “tuyg‘ular qofiyabozligi” so‘zning faqat qadrini tushiradi. Ijodkorning san’atkorligi to‘laqonli obrazlarda umuminsoniy dardlarni kuylay olishidadir. Shoir o‘z uslubini poetik obrazlarda akslantirar ekan, u qalb kechinmalari-yu ruhiy olamini, qo‘liga qalam tutqazgan his-tuyg‘ularini syujet va voqea tarzida; peyzaj yoki tasvir tarzida; kayfiyat va ruhiy holatning shaklini rassomona quyuq ranglarda (bo‘rtma obrazlarda) chizish tarzida ifodalashi mumkin. Iqbol Mirzo ijodida shoir shaxsidagi insonparvarlik, to‘g‘rilik, haq va adolatga, insonga mehr-muruvvat va qadr-qimmat, oliyjanoblik va bag‘rikenglik namoyon bo‘ladi va bu fazilatlar uning qalamiga mansub ko‘pgina she’rlardagi obrazlarni ham ichdan nurlantirib turadi. Shoir insondagi ezgu fazilatlarning yanada kamol topa borishi va shu yo‘l bilan inson g‘ururi, nomusi, sha’ni hamda qadr-qimmatining ulug‘lanishini istaydi va shu maqsad bilan qalam tebratadi. Ijodkor shaxsining badiiy obraz bilan birikib ketishi ijodning tabiati, mazmuni, mas’uliyati bilan ham bog‘liq. Yaratilgan har bir haqiqiy san’at asari mohiyatan ijodkorning qalb parchasidir. Iqbol Mirzo ijodida muhabbat lirikasi salmoqli o‘rinni egallaydi. Shoir bu tuyg‘uni goh quvnoq, goh g‘amgin tarzda boshqalardan farqli o‘laroq, o‘zgacha talqinda kuylaydi. Uning she’rlaridan xalqimizga xos bo‘lgan donishmandlik va jaydarilik nafasi ufurib turadi. Shoir qalamiga mansub, “Zulfiya”, “Kuyganyorda yozilgan she’r”, “Tillo uzuk”, “Ayyor qiz”, “Qiyin bo‘ldi”, “Bunaqasi ketmaydi”, “Pushaymon”, “Qizlarxon” kabi she’rlarda lirik qahramon jaydari oshiqning ishq iztiroblari hazilomuz tarzda ifoda qilinsa ham, tub mazmunda uning dardi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoirning “Pushaymon” sarlavhali she’ri benihoya go‘zal poetik lavhalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Eng boy odam men bo‘lardim,

Pushaymondan foyda bo‘lsa.

Ko‘ngli toshdan tosh dilbarni

Sog‘inaman qayda bo‘lsa.

O‘n beshimda qoldim sevib,

Uyda yurak siqar edi.

U ham ko‘lob suvlar sepib,

Yana suvga chiqar edi ¹.

Yuqoridagi ijod namunasida shoir she‘riy misralar orqali “So‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman” naqlining ma‘nosini yuzaga keltiradi va pushaymonlarga boy oshiq tilidan so‘zlaydi. Banddagi “Ko‘ngli toshdan tosh dilbar” jumlasini berish orqali ijodkor o‘ziga xos ohangdorlik va falsafiy mazmunni ifodalashga erishadi. O‘smirlikdagi beg‘ubor muhabbatning sirlarini ko‘lob suvlar sepib, yana suvga chiqadigan qiz va uning istiqboliga oshiqadigan o‘spirin yigit kechinmalari timsolida bayon etadi.

Sindirmaydi yillar kimni,

Tuyg‘ularni silliqlaydi.

Har ko‘rganda yuragimni,

Kapalaklar qitiqlaydi.

Shoir inson qalbining eng bebaho gavhari bo‘lmish muhabbat ham ba‘zan taqdir sarkashligidan yillar qa‘rida yashirinib, o‘zini namoyon eta olmasligini, ammo hamisha yurakning bir chetida umrga ziyo bag‘ishlagan shu‘la kabi ko‘ksimizni yondirib, miltirab turishini go‘zal tarzda ifodalaydi. “Tuyg‘ularni silliqlagan yillar” ham bu tuyg‘uni butkul so‘ndira olmasligiga ishora qiladi. Muhabbat bog‘lagan insonimizni har ko‘rganimizda his qiladigan tushuniksiz kechinmani shoir “Har ko‘rganda yuragimni, Kapalaklar qitiqlaydi” tarzida g‘oyatda noziklik va nafislik bilan aniq bayon etadi.

¹ Iqbol Mirzo. Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas. – Toshkent: “Istiqlol”, 2005. – B. 27.

“Iqbol Mirzo she’rlaridagi badiiy topilmalar (qor tashbehida: “Qo‘l ushlab tushar ko‘kdan laylakqor”; kuz manzaralari ifodasida: “Ko‘pirib boradi qo‘ng‘ir bulutlar; muhabbat tasvirida: “Muhabbat bu – baxtning surati” kabi) nihoyatda hayotiyli, lirik qahramon ruhiyati kengliklarini o‘zida ifoda etishi bilan alohidalik kasb etadi. Aytish mumkinki, shoirning ishqiy mavzudagi she’rlari oshiq kechinmalarining tabiat holatlariga hamohang ifoda etilishi, tashbeh, tashxis, tajohuli orif, mubolag‘ali tasvirlarga boyliqi bilan zamonaviy o‘zbek she’riyatida yangi sahifalar yarata oldi”¹.

Iqbol Mirzoning “O‘zbek”, “Navro‘zguli”, “Bug‘doyso‘z”, “Aylanay”, “Qo‘qon shamoli” kabi she’rlari xalqona ohanglarga yo‘g‘rilgan. Bu ijod namunalarida xalqimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat va azaliy qadriyatlar, ezgulik timsollari o‘z ifodasini topgan. “Navro‘zguli” sarlavhali she’rida shoir, bahorning ilk guli bo‘lmish boychechakka navro‘zguli deya murojaat qiladi. Azaldan xalqimiz bu gulni bahorning elchisi, ko‘klam nafasini keltirgan chechak deya ko‘zlariga surtib, omonlik nishonasi sifatida e‘zozlaydi. Shoir ana shu samimiy mehrni o‘z she’rida shunday ifodalaydi:

Omonliqsan, to‘tiyosan ko‘zlarga,

Sevgi maktubisan mas’um qizlarga.

Suykalasan dudoqlarga yuzlarga,

Bitta o‘zing bir butun gulzormisan?²

Ijodkor hayotning oddiy insonlarga pinhon nuqtalarini ko‘ngil ko‘zi bilan ko‘radi va boshqalarning dardini, umuminsoniy muammolarni o‘z yuragida his qiladi. Ularni qog‘ozga to‘kadi. Iqbol Mirzo ijodida mavzular ko‘lami juda keng. Shoir nafaqat ishq-muhabbatni tarannum etadi, balki insoniyatga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar va qusurlarni, bir vaqtning o‘zida inson qalbida yuz berayotgan turfa tuyg‘ular silsilasini, shaxs ruhiyatining murakkab holatlarini ham o‘z she’rlarida

¹ Quvvatova D. Iqbol Mirzo she’riyatining poetik xususiyatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2018. № 5 – B. 46.

² Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 18.

teran aks ettiradi. Uning “Singan odam”, “Mehr haqida”, “Bachkana kun”, “Yigit”, “Meros” kabi she’rlarida ana shu umuminsoniy kechinmalar o‘z ifodasini topgan.

Iqbol Mirzoning quyidagi she’rida shoirning o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminga bo‘lgan cheksiz mehri va sog‘inch hissi betakror tarzda bayon etilgan:

Eng go‘zal mamlakat – Qo‘shtegirmonda

Mensiz oqarar tong, oqadi suvlar...

Tushlarini suvlarga sochadi tongda

Onhazratning

qizlaridek

suluvlar...¹

Shoir yuqoridagi misralarda inson uchun eng qadrdon go‘sha – o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproq, hamisha ko‘ngli talpinib turadigan maskan ekanligini ifodalaydi. Shoir o‘zi tavallud topgan Qo‘shtegirmon qishlog‘ini “Eng go‘zal mamlakat” deya entikib e’tirof etadi. Zero, inson uchun dunyoda bolalik kunlarini kechirgan, bag‘rida o‘ynab o‘sgan zamindan ham go‘zalroq joy bo‘lishi mumkinmi? Axir Vatan ostonadan boshlanadi. Vatanga bo‘lgan muhabbat ham, avvalo, oila bag‘rida shakllanadi. Vatan tushunchasini teran anglamoq uchun, inson oldin o‘z uyini, o‘z oilasini sevmog‘i kerak. Buyuk Vatanga muhabbat ana shu kichik oilaga bo‘lgan mehrdan boshlanadi. Shoir yuragining bir parchasi bo‘lgan qadrdon oshyonni qishloq deb atamaydi, balki bolaligida ko‘z o‘ngida eng go‘zal joy sifatida namoyon bo‘lgan qishlog‘ining go‘zalligini o‘zgacha tasvirlaydi. Ijodkor bu sevikli oshyondan yiroq ketganidan, usiz otayotgan tonglar, oqayotgan zilol suvlar shavqidan bebahra qolayotganidan o‘kinadi.

Meni unutilmay qiynalar qishloq,

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 42.

Turnalar yig‘laydi osmonlarida.

Tovonimni qo‘msab, qabarar tuproq,

Qolarman tuproqning tovonlariga!

Yuqoridagi misralarda shoir, o‘z qalbini ezayotgan bu sog‘inchning o‘zi uchun qadrdon zamin uchun ham begona emasligini oshkor qiladi. “Meni unutmay qiynalar qishloq” jumlasini orqali shoir qishlog‘ini farzandini sog‘inib, uning yo‘liga ko‘z tutgan mehribon ona siymosida gavdalantiradi. O‘zini ona tuprog‘ining tovoniga qolayotgan farzand qiyofasida ko‘radi va bundan cheksiz iztirob chekadi, qalbi o‘kinchga to‘ladi. She’rda shoirni sog‘inib yig‘layotgan turnalar tasviri g‘oyatda ta’sirli ifoda kasb etgan. Bu yerda lirik qahramon shoirning o‘zi. Shoir qalbi esa, hamisha tabiatga hamohang. U borliqni, undagi barcha go‘zallikni sofdillik bilan yaxshi ko‘radi. Aynan shuning uchun ham tabiatdagi barcha narsalar shoir uchun qadrdon. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, sadoqatli qushlar bo‘lmish turnalar ham shoirni qadrlaydilar. Uni sog‘inib yig‘laydilar. Chunki tabiat ham o‘ziga oshno bo‘lgan pokiza ko‘ngilli shoiriga hamisha intiq. Ijodkor bu she’rda tabiat tasviri bilan inson qalb kechinmalarini uyg‘un holda ifodalagan. Iqbol Mirzo ijodida bunday ramziy obrazlar juda ko‘p uchraydi. Shoir oddiy tuyulgan barcha jonli va jonsiz narsalarga ulkan ma’no yuklaydi va shu bilan birga mazmunni yanada boyitadi. Keyingi bandda shoir qishloq hayotiga, qishloq odamlarining kundalik turmushiga oid detallarni tasvirlash orqali kitobxon ko‘z o‘ngida so‘lim qishloq manzarasini jonlantiradi. Bunda mahoratli ijodkor daydi epkinlarning nayrang topib siniq somonlarni nay qilib puflashi tasvirini keltiradi. Bunday badiiy topilma she’rning mazmunini boyitishi bilan birga uning ohangdorligini ham oshiradi.

Og‘ilda o‘roqni sarg‘aytirar zang,

Dalalar kuzatar zarrin mezonni.

Daydi epkinlarning topgani nayrang:

Nay qilib puflaydi siniq somonni...

She'ning keyingi bandida shoir o'zi tug'ilgan muqaddas go'shada uni sog'inib qon yig'lab gulbarglarini to'kayotgan gullar va ularni eslamay qo'yganidan o'kinib, undan arazlagan ko'yi mag'rib tomonga ketayotgan farishta kunlar tasvirini keltiradi. Shoir, undan arazlagan farishta kunlarni, aynan, mag'rib tomonga ketayotganini aks ettirishida ham ulkan ma'no bor. Ma'lumki, quyosh mashriqdan bo'y ko'rsatib, mag'ribga botadi. Shoir qalbidagi iztirobni va sog'inchni, farishta kunlarning armonini, umidsizligini aynan mag'ribga ketish harakati bilan ifodalaydi. Bu shoir falsafiy fikrlarining teranligini anglatadi. She'rdan o'rin olgan "farishta kunlar" ifodasi alohida ahamiyatga ega. Bizga ayonki, har bir insonning hayotida bolalik atalmish farishta kunlar mavjud bo'ladi. Inson ulg'aygani sari turmush tashvishlari, hayot haqiqatlari bilan yuzma-yuz keladi va unda keskin o'zgarishlar yuz beradi. Hayotida yuzaga kelgan bunday o'zgarishlar natijasida, inson o'zligidan yiroqlashib boradi. Ammo ba'zan ko'ngli bilan yolg'iz qolganda o'zining eng baxtiyor davrlari bo'lmish bolaligini qo'msaydi, sog'inadi. Qalbini chuqur o'kinch egallaydi. Biroq, beg'ubor bolaligini tark etgan onidan boshlab bolalikning farishta kunlari undan yuz o'giradi. Endi ular faqat go'zal xotiralarga aylanadi.

Eng go'zal mamlakat – Qo'shtegirmonda

Qon yig'lab gulbargin to'kadi gullar.

Ma'yus ketib borar mag'rib tomonga

Mendan arazlagan farishta kunlar...¹

Soddalik va oddiylik buyuklikdir. Chunki unda samimiyat va ochiq ko'ngillik, xalqchillik o'z ifodasini topgan bo'ladi. Iqbol Mirzo she'riyatining sehri ham ana shunda. Bu she'riyat o'zining soddaligi, ravon uslubi, sermazmunligi, ohangdorligi va ayni paytda sirililigi bilan o'ziga tortadi. Shoir qisqa poetik ifodalarda yuksak

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 42.

badiiyat bilan to‘yingan, chuqur hayotiy mazmunga ega bo‘lgan ijod namunalarini yaratadi. Ravon uslubi orqali poetik ma’noni chuqur hissiyot va ruhiy olamning tahlili asosida ifodalaydi. Uning she’rlarini tushunish oson va shu bilan birga ularni chuqur talqin qilish murakkab hamdir. Chunki shoir ijodi ohorli badiiy topilmalar va o‘ziga xos falsafiy mushohadaga boy. Iqbol Mirzo she’rlarining ohangi ravon, qofiyasi to‘q, go‘zal satrlar quyilib keladiki, ular qatidan badiiy tasvir vositalari ko‘z ochaveradi. Uning she’rlarida xalq qo‘llaydigan termalar, hikmatlar, mazmundor so‘zlar, xalqona ta’sirli obrazlardan unumli foydalanilgan.

Gulmisiz, jambilmisiz, rayhonmisiz?

Hurmisiz, paykarmisiz, jononmisiz?

Hajringizda o‘lmagan jonim mening,

Men-ku lol, siz ham menga hayronmisiz? ¹

O‘z yorining husni-kamolidan benihoya to‘lqinlangan oshiq hayratini go‘zal va qabariq tasvirlashga xizmat qilgan o‘zbek xalq askiya payrovlaridagi an’anaviy boshlanma shoir qalamining sehri ta’sirida oddiy va shu bilan birga go‘zal poetik ifodaga aylangan. Keyingi satrlarda yorning go‘zalligi, qosh-u ko‘zi oy, hilol, oftob, osmon kabi an’anaviy obrazlar xalq laparlariga xos o‘ynoqi va serjilo ohang bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan:

Qosh bo‘lib qo‘nmish ikki kuygan hilol,

Qoshiga yulduzchalar uygan hilol,

Yolvorurman, ko‘zni och, uyg‘on, hilol,

Oymisiz, oftobmisiz, osmonmisiz?

Yuqoridagi misralarda shoir o‘ziga xos tashbeh qo‘llaydi. Mumtoz she’riyatda yorning qoshi hilolga qiyos qilinadi, ammo shoir hilolning rangi oq bo‘lganligi

¹ Iqbol Mirzo. Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?!. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014. – B. 15.

uchun bu oddiygina qiyos bilan kifoyalanmaydi. U yorning qoshini kuygan hilolga tashbeh qiladi va go‘zal poetik ifoda yaratadi. She‘rning keyingi ikki bandining o‘zidayoq suyukli dilbarning tengsiz jamolidan hayratlangan oshiq o‘z hayratini “Bormisiz rostdan yoki yolg‘onmisiz?” jumlasini orqali bayon etadi. She‘rda xalq og‘zaki ijodiga yaqin qochirimli va ohangdor til katta mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Yor go‘zalligidan bu qadar lol-u hayronlik, oshuftalik lirik qahramonni butunlay devonavash qilib qo‘yadi. Bundan taajjublangan do‘stlari unga “Qulmisiz, shoirmisiz, qurbonmisiz?” deya savol beradilar. To‘plamdan o‘rin olgan “Noz va firoq” she‘rida esa shoir xalqimizning til boyligini va millat ruhiyatini aks ettiradi. Ijod namunasida jonli tildan o‘rinli foydalanish, unga xos soddalik va ravonlik, unumli tasviriy ifoda va badiiy usullarni ijodga keng tatbiq etish mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘lay agar, arazning ko‘p gashti bor,

Agar araz begina, bedard bo‘lsa.

Endi yetar! Xizmatiga men tayyor –

Yarashtirib qo‘yadigan mard bo‘lsa ¹.

O‘z mahbubasi, yoki ayoliga nisbatan ichki bir ehtirom, ularning ko‘ngliga qarash, bu qavm vakillarini azaldan avaylab-asrash, o‘z jufti haloliga Olloh peshonasiga yozgan ko‘z ochib ko‘rgani sifatida sadoqat saqlash va o‘z tuyg‘ularini balandparvoz so‘zlarga burkamay, samimiy va dangal ifodalash biroz chapani bo‘lsa-da, mard va oqko‘ngil o‘zbek yigitigagina xosdir. She‘rda yaqqol ko‘zga tashlanadigan mana shu milliy o‘ziga xoslik asar kayfiyatiga shunchalik mos tushganki, bu holatni o‘zgacha so‘zlar bilan bu qadar ta’sirli ifodalab berish imkonsizdir.

¹Iqbol Mirzo. Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?!. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014. – B. 17.

Iqbol Mirzo ijodida tarixiy yodgorliklar, voqea-hodisalar, afsona va haqiqatlar bilan bog‘liq obrazlar ko‘p uchraydi va bunday obrazlar tarixdan xabardorlik, undan hikmatlar izlash, o‘tmish hodisalaridan xulosalar chiqarish bilan birga bugungi real odamlarning real hayotini kuzatishdan, umumlashtirishdan tug‘ilgan. Shoirning insoniy munosabatlar va kechinmalarning lirik ifodasiga aylangan muhabbat mavzusidagi she‘riyati tabiiy va samimiyligi bilan ko‘ngillarda tansiq tuyg‘ularning ifor sochishiga, talqin markazidagi hayajon tasviri qalblarga ko‘chishiga sabab bo‘ladi. Bu she‘rlarda sevishga qodir insonning pok va samimiy tuyg‘usi gohi jo‘shqin, gohi hazin ohanglarda tarannum etiladi. Shoir qalamiga mansub “O‘shanda“ sarlavhali she‘rda ham ana shu pokiza tuyg‘u haqida so‘z boradi:

O‘shanda (oq osmon, qo‘ng‘ir yer guvoh...)

Dilimni bilardi majnuntol bargi.

Kaftimda yo‘q edi zig‘irdek gunoh,

Yo‘q edi kaftimning zarradek gardi –

O‘shanda men seni yaxshi ko‘rardim...¹

Yuqoridagi misralarda shoir inson qalbini poklovchi ilk muhabbatni samimiy tarzda ifodalaydi. Banddan o‘rin olgan “oq osmon” va “qo‘ng‘ir yer” birikmalari she‘rga o‘zgacha mazmun bag‘ishlaydi. “Yo‘q edi kaftimning zarradek gardi” jumlasini orqali ijodkor oshiq qalbining har qanday g‘arazlardan va g‘uborlardan holi bo‘lishini, muhabbatning poklikka, ezgulikka undovchi tuyg‘u ekanligini yoritib beradi. “O‘shanda men seni yaxshi ko‘rardim...” misrasidan esa oddiylik, soxtaliklardan yiroqlik, samimiylik va kuygan ko‘ngil o‘kinchi ayon bo‘ladi. Shoir bu o‘rinda “sevardim” so‘zini qo‘llamaydi, aynan “yaxshi ko‘rardim” ifodasini ishlatadi va bu orqali ilk muhabbatga xos bo‘lgan soflik, andisha hamda pokizalikni ko‘rsatib beradi. Bu esa ijodkorning so‘z qo‘llashdagi yetuk

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 44.

salohiyatidan darak beradi. Shoir qisqa satrlarda lirik qahramon oshiqning ko'ngil kechinmalarini, o'rtanishlarini tiniq va betakror tashbehlar vositasida to'liq aks ettiradi. Ushbu she'rda ijodkor tabiat tasvirlarini oshiq qalbi bilan uyg'un tarzda ifodalaydi. She'rdan o'rin olgan, "Yuragim tomida yotgan qizg'aldoq", "Qirda qyun bilan kurash tushardim", "O'shanda shamolni sevardi og'och", "Bulutlar yashardi g'amli o'ksinib", "Tutundan qorayib ketgan qaldirg'och" kabi misralar lirik qahramon oshiqning ko'ngil kechinmalariga uyg'un holda keltiriladi va uning holatini yanada teranroq ifodalashga xizmat qiladi.

O'shanda (oq osmon, qo'ng'ir yer guvoh...)

Dumog'im tuyardi laziz munglarni.

Hovuzning tubinda yolg'iz gulimoh

O'tli ohlar ura, yonib tinglardim.

Yuqorida keltirilgan bandda shoir ijodkor va oshiq qalbining mudom laziz munglarga hamohang ekanini ayon qiladi. Zero, ishq uchun ham, ijod uchun ham ilohiy dard kerak. Shoir "o'tli ohlar urayotgan gulimoh" tasviri orqali dardmand qalbning har qanday kuygan ko'ngil ohiga oshufta ekanini namoyon qiladi. Shu bilan birga ushbu poetik ifodaning qo'llanishi she'rning mazmuniga yanada teranlik baxsh etib, uning ohangdorligini yuksaltiradi.

Iqbol Mirzo she'riyatida mavzu va poetik ifoda o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Uslubiy individuallik va ijodiy originallik ijodkor tomonidan yaratilgan har bir she'riy namunada o'z ifodasini topadi. Shoir inson qalbining eng inja tuyg'ularini, insonning ichki kechinmalarini, ruhiyatini, xayolot olamini, kechmishlarini she'riy misralarda g'oyat tiniq tarzda yoritib beradi. Uning ijodida mavzular ko'lami g'oyatda keng. Shoir har qanday mavzuga qo'l urar ekan, unga yangicha ruh va go'zallik bag'ishlaydi. Shoir tomonidan qalamga olingan rang-barang mavzular uning jo'shqin ilhomi va yetuk iste'dodi samarasida sayqal topadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, istiqlol davri o'zbek she'riyatida ijodkorlar tomonidan asosiy e'tibor, avvalambor, inson qalbi va uning ichki kechinmalariga qaratilgan. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida shoirlarimiz o'zlashtirayotgan tasvir usullari, ular yaratayotgan asar poetikasidagi yangilanishlar o'zining milliy ruhdagi talqini bilan zohir bo'layotir. Guvohi bo'layotganimizdek, o'zbek she'riyati mustaqillik yillarida xalqni, ayniqsa, yoshlarimizni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat, istiqlol shukhi ruhida tarbiyalashda o'z vazifasini sidqidildan bajarmoqda. Milliy mafkuramizning shakllanishi va taraqqiyotini ta'minlashda asosiy omillardan biri sifatida tobora faollashmoqda. Mustaqillik davri she'riyatida yangi tamoyillar bilan bir qatorda mumtoz adabiyot an'analari asosida ham ko'plab she'rlar yaratildi. Mumtoz adabiyot janrlaridan g'azal, ruboiy va masnaviy shaklidagi namunalar yuzaga keldi. Bu davrda o'zbek she'riyatidagi ijodiy yangiliklar, shakliy-mundarijaviy izlanishlar istiqlol tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. An'anaviy she'riyatda teng hijolikka amal qilingan bo'lsa, bu vaqtga kelib, she'ning shakli bilan bog'liq izlanishlar, vazn, qofiya va janrlarga murojaatdagi kabi hijolar borasida ham erkin yo'l tutishda yorqin ko'rinadi. Hozirgi she'riyat rivojidagi yetakchi xususiyatlar orasida falsafiy- timsolli obrazlilik alohida o'ringa ega. Ramz va metaforizm asosida fikrlash va badiiy umumlashmalar qilishda taxayyulli obrazlilikning mavqei tobora yorqin ko'rinmoqda. Badiiy fikrning kishilar ongida zuhur bo'lgan falsafiy mazmun bilan uyg'unlashuvi kengaymoqda. Bugungi she'riyatdagi uslubiy rang-baranglik uning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Zero, uslub ijodkorning o'zi, betakror kashf yo'sini va individuallikning ifoda shaklidir. Istiqlol davri she'riyati namoyandalari e'tiborni, bevosita, inson qalbini kashf etishga qaratadilar va shu bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni qalamga oldilar. Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she'riyatida o'rin olgan go'zal badiiy namunalarda ham inson va insoniy fazilatlar tarannumi yetakchi o'rin tutadi. Bu insoniy fazilatlar ichida eng birinchi o'rinda oliy qadriyatlar bo'lmish

mehr- muhabbat tushunchalari turadi. Har ikkala shoir ijodida ham bu mavzular alohida ahamiyatga ega. Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she'riyatida mavzular ko'lam juda keng. Bu namunalarda bugungi kunning ijtimoiy muammolari ko'tarilgan. Demak, ushbu ijodkorlarning asarlarini tahlil qilish har bir kitobxon uchun ham qiziqarli, ham foydalidir.

Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodning adabiyotga, kitobga mehr qo'yishida ham bugungi kunda yaratilayotgan asarlarning xizmati katta bo'lmog'i, o'quvchiga estetik zavq bera olishi lozim. Bugungi ilm-fan taraqqiy etgan bir davrda o'quvchilarni badiiy adabiyotga mehr qo'yishga undaydigan kuch ham, avvalo, yaratilayotgan eng sara asarlardir. Vaqt chig'irig'idan o'tgan, yillar o'tgani sayin o'zining yashovchanlik xususiyatlarini yanada mustahkamlab borayotgan Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodi esa bu talablarga to'la javob beradi.

Ramz va majozlar barcha ijodkorlar uchun g'oyaviy-badiiy mazmunni ta'sirli ifodalash va tasvirda emotsionallikni oshirish imkoniyati bo'lib, bunda har bir shoirga xos ijodiy individuallik, poetik mahorat va iste'dod muhim rol o'ynaydi. Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodini falsafiy yo'nalishda yozilgan she'rlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Ijodkorlarning mavzu ko'lam kengligi, ularda fikr-mulohazalarning hayotiy va ruhiy jihatlarini ochib berilganligi yuqoridagi xulosamizni asoslay oladi. Ushbu badiiyat jilvalari kitobxonning zerikishiga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan bir qatorda ularda qalamga olingan barcha insoniy fazilatlar kitobxonning qalbiga tez yo'l topa oladi. Bir qarashda tili soddadek tuyulgan she'rlarning asl mohiyatida kuchli falsafiy qarashlarning mavjudligi bugungi insonning ichki olamini tadqiq etish uchun safarbar etilgan adabiyot uchun ayni damda mos va xosdir. Muhabbat mavzusida yaratilgan ijod namunalarida oshiq va ma'shuqa ko'nglining intim holatlari teran aks ettirilishi, o'zi qadimiy bo'lgan, ammo hamma zamonlarda ham yangicha qiyofa bilan satrlarga ko'chiriladigan bu tuyg'u Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodida ham butunlay yangicha tashbehlar bilan yuzaga chiqqanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu ijodkorlar tomonidan yaratilgan namunalarda inson qalbining eng ichki qirralari, betakror

tashbehlar, teran mushohadalar va yuksak badiiyat jilvalari orqali namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari ijodkorlar ezgulik, insoniylik, imon, halollik va boshqa insoniy fazilatlarga alohida-alohida to‘xtalib, bu fazilatlarni kundalik turmushimizda yuz beradigan hodisalar tasviri orqali yorqin ifodalab beradilar. Bundan ayon bo‘ladiki, ijodkorlarning o‘tkir nigohi, qalb ko‘zi atrofida sodir bo‘layotgan har qanday voqea-hodisaga befarq emas, ularning ta’sirchan ruhi hamisha uyg‘oqdir. Zero, ijodkor shaxsi har qanday holatdan hayratlanadi, zavq oladi va boshqalarning ham hayratlanishiga sababchi bo‘ladi. Ijodkor uchun eng avvalo, ko‘ngil tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham ular ko‘ngilga yaqin tuyg‘ularni she’rga soladilar.

Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she’riyatida ishq tarannumi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Talqin qilinayotgan ishq masalasi o‘ta sodda va hayotiy misollar bilan berilgani kitobxonning qalbiga tez yo‘l topa oladi. Shu bilan birga ularning estetik didini charxlashga, yaxshi asarni tanlay olishga ham o‘rgatadi. Chunki, bugungi kunda ishq-muhabbat tarannum etilayotgan asarlar talaygina bo‘lib, ularning barchasi ham yoshlar uchun bu tuyg‘uning ulug‘ va muqaddas ekanini tushuntira olmaydi, aksincha, ularni hayotning yengilliklariga o‘rgatib qo‘yadi yoki tushkun kayfiyatga soladi. Shu orqali o‘quvchi yuragini larzaga solishga urinadi. Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she’riyatida esa inson qalbining bebeho boyligi bo‘lgan muhabbatning ilohiyligi va muqaddasligi teran aks ettiriladi. Shu bilan birga yoshlar ongida ishqning faqat fojeiy ko‘rinishlarini emas, balki hayotdagi asl in’ikosini ochib berishga xizmat qiladi.

Istiqlol davri ijodkorlari tomonidan yaratilayotgan she’riy namunalar o‘zining mazmun jihatdan salmoqdorligi, yuksak badiiyati va ko‘ngil kechinmalarini nozik ifodalashi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ana shunday yorqin ijod namunalari taniqli shoirlarimiz – Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo ijodidan keng o‘rin olganligi alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR

1.1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.

1.2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 482 b.

1.3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.// Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017-yil. 4-avgust.

ILMIY-NAZARIY VA BADIY ADABIYOTLAR

2.1. Adabiyot nazariyasi. T.1. – Toshkent: "Fan", 1978. – 414 b.

2.2. Adabiyot nazariyasi. T.2. – Toshkent: "Fan", 1979. – 445 b.

2.3. Akramov B. She'riyat gavhari. – Toshkent, 1979. –136 b.

2.4. Akramov B. Olamning butunligi. –Toshkent, 1988. – 107 b.

2.5. Aristotel. Poetika. – Toshkent, 1980. –151 b.

2.6. Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent, 1968. – 160 b.

2.7. Belinskiy. V.G. Adabiy orzular. Maqolalar. – Toshkent: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1977. – 219 b.

2.8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2001. – 556 b.

2.9. Iqbol Mirzo. Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?!. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014. – 159 b.

2.10. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko'rmasam bo'lmas. –Toshkent: "Istiqlol", 2005. – 43 b.

2.11. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – 146 b.

- 2.12. Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. –Toshkent: “Fan”, 2004.–335 b.
- 2.13. Karimov X. Janrmi yoki uslub.–Toshkent: “Fan”, 1991. – 56 b.
- 2.14. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1996. – 271 b.
- 2.15. Mamajonov S. Uslub jilolari. – Toshkent: “Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1972. – 220 b.
- 2.16. Mamajonov S. Lirik olam, epik ko'lam. – Toshkent, 1979. – 334 b.
- 2.17. Matnazar Abdulhakim. Oydinlik. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1977. – 112 b.
- 2.18. Matnazar Abdulhakim. Tiniq tonglar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 48 b.
- 2.19. Matnazar Abdulhakim. Yonimdagi daryolar. – Urganch: “Xorazm”, 1993. – 53 b.
- 2.20. Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. –Toshkent: “Sharq”, 2008. – 336 b.
- 2.21. Matnazar Abdulhakim. Ko'prik. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2009. – 144 b.
- 2.22. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1985. – 222 b.
- 2.23. Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: “Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1986. – 351 b.
- 2.24. Normatov U. Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat. – Toshkent, 2006. – 44 b.
- 2.25. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: “Adabiyot va san'at nashriyoti”, 2007. – 351 b.
- 2.26. Normatov U. Yonib, o'zgalarni uyg'otmoq ne baxt. So'ng so'z // Omon Matjon. Iymon yog'dusi. Saylanma. – Toshkent: “Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1994. – 372 b.
- 2.27. Nosirov U. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: “Fan”, 1981. – 198 b.

- 2.28. Qahhorova K. Chorak asr hamnafas. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1987. – 132 b.
- 2.29. Qosimov Y. Uygʻonish sadolari. – Toshkent: “Adabiyot va sanʼat nashriyoti”, 1991. – 104 b.
- 2.30. Quronov D. Adabiyot nadir. – Toshkent: “Zarqalam”, 2006. – 126 b.
- 2.31. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: “Fan”, 2007. – 228 b.
- 2.32. Rahimjonov N. Davr va oʻzbek lirikasi. – Toshkent: “Fan”, 1979. – 192 b.
- 2.33. Rahimjonov N. Mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyati. – Toshkent: “Fan”, 2007. – 259 b.
- 2.34. Rahimjonov N. Shoir va davr. – Toshkent, 1983. – 184 b.
- 2.35. Rahimjonov N. Oʻzbek sovet adabiyotida poema. – Toshkent: “Fan”, 1986. – 176 b.
- 2.36. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 336 b.
- 2.37. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004. – 127 b.
- 2.38. Sanjar Sodiq. Ijodning oʻttiz lahzasi. – Toshkent: “Sharq”, 2005. – 320 b.
- 2.39. Subhon Shermurod. Sheʼriyat iqlimi. – Toshkent: “Zarqalam”, 2005. – 76 b.
- 2.40. Ulugʻbek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 200 b.
- 2.41. Ulugʻbek Hamdamov. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: “Fan”, 2007. – 196 b.
- 2.42. Ulugʻbek Hamdam. Ruhni uygʻotguvchi soʻz. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2017. – 400 b.
- 2.43. Храпченко М. Б. Творческая индивидуальность писателя и развития литературы. – М: Художественная литература, 1977.-С. 68.

- 2.44. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. – Toshkent, 2006. – 778 b.
- 2.45. Yoʻldoshev Q, Yoʻldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Kamalak”, 2016. – 462 b.
- 2.46. Gʻafurov I. Yonar soʻz. Adabiy maqolalar. – Toshkent, 1973. – 183 b.
- 2.47. Gʻafurov I. Sheʼriyat – izlanish demak. – Toshkent: “Adabiyot va sanʼat nashriyoti”, 1984. – 224 b.
- 2.48. Gʻafurov I. Lirikaning yuragi. – Toshkent, 1982. – 222 b.
- 2.49. Gʻafurov I. Mangu latofat. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – 464 b.
- 2.50. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – 640 b.
- 2.51. Shukurov N. Janrlar va uslublar. – Toshkent: “Adabiyot va sanʼat nashriyoti”, 1973. – 170 b.

III. MATBUOT MATERIALLARI

- 3.1. Jumaniyozova N. M. Abdulhakim sheʼrlarida majoziy tasvir usullari. // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2008. №6 – 93 – 94 b.
- 3.2. Matnazar Abdulhakim. Eʼtiqodning zaʼfaron malhamlari. // Xorazm haqiqati. 1998. 25-mart.
- 3.3. Matnazar Abdulhakim. Muhtasham ruh. // Urganch oqshomi. 2002. 19-yanvar
- 3.4. Matnazar Abdulhakim. Umumbashariy monandlik. // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati, 2007. 17-avgust.
- 3.5. Quvvatova D. Iqbol Mirzo sheʼriyatining poetik xususiyatlari. // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2018. № 5 – 45 – 46 b.
- 3.6. Yoʻldoshev Q. Tuygʻularning rangin jilosi. // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 2004. 10-aprel.

IV. INTERNET SAYTLARI

4.1. www.adabiyot.uz

4.2. www.google.uz.

4.3. [www. Kh. Davron.uz](http://www.Kh.Davron.uz)

4.4. www.literatura.ru

4.5. www.ziyonet.uz